

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 82.01

KBK: 81.2-7

T-87

To‘rayeva Gulobdon Qodirovna

**Bilvosita tarjimaning yutuq va kamchiliklari
(Premchandning “Nirmala” romani misolida)**

5A120201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
(sharq tillari bo‘yicha) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari nomzodii, dotsent **Xotamova D.A.**

Toshkent – 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Tarjimashunoslikda bilvosita va bevosita tarjima muammolari.....	9
1. Bilvosita tarjima haqidagi nazariy konsepsiyalar.....	9
2. Bevosita tarjimaning o‘ziga xos jihatlari.....	20
I bob bo‘yicha xulosalar.....	24
II bob. Premchandning “निर्मला” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida frazeologizmlarning ifodalanishi.....	26
1. Frazeologizmlar va ularning tasnifi.....	26
2. “Nirmala” asaridagi frazeologizmlarni bilvosita tarjimada o‘girilish muammolari.....	35
3. “Nirmala” romaninng bevosita tarjimasida frazeologizmlarning aks etishi.....	50
II bob bo‘yicha xulosalar.....	57
III bob. Premchandning “निर्मला” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida badiiy-tasviriy vositalarni berilishi.....	59
1. “Nirmala” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida badiiy-tasviriy vositalarni ifodalanishi.....	59
2. Premchandning “Nirmala” asari misolida bilvosita va bevosita tarjimalarida erishilgan yutuq va kamchiliklar.....	71
III bob bo‘yichaxulosalar.....	79
Xulosa.....	80
Foydalanilgan adabiyotlarro‘yxati.....	83

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017yil 29aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹gi qaroriga muvofiq, mamlakatimiz o‘z taraqqiyot yo‘lida ildamlab borar ekan, bunda dunyo bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanishi lozim. Bu jarayonining eng muhim omillardan biri albatta madaniyatning rivoj topishidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”²gi 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-sonli qarorida qayd etilishicha, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”³gi Qonunini hamda Kardlar tayyorlash milliy dasturi⁴ni amalga oshirish doirasida chet tillariga o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishiga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi so‘zlarini esga olish joiz: “Uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan o‘g‘il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda oliyanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi”⁵. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlari, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”⁶.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.2017yil 29aprel, PQ-2909-son.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-sonli Qarori, “Xalq so‘zi” gazetasi, 11.12.2012, 240 (5660)-son.

³O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust, O‘RQ-464-I-son.

⁴Kardlar tayyorlash milliy dasturi.1997 yil 29 avgust, O‘RQ-464-I-son.

⁵Каримов И.А. Юксакмаънавият – енгилмаскуч. – Т.: Маънавият, 2008. –Б. 139.

⁶Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 157-158.

Hindiy tilidagi durdona asarlar o'zbek tiliga bilvosita yoki bevosita tarjima qilingan. XX asrda hindiy tilidan o'zbek tiliga o'girilgan asarlarning deyarli barchasi vositachi til – rus tili orqali amalga oshirilgan. Hind xalqining milliy o'ziga xosligi, boshqa xalqnikiga o'xshamagan an'ana va urf-odatlarini ba'zi tarjimalarda mahorat bilan tasvirlangan bo'lsa, ayrimlarida esa milliy bo'yodkorligini yo'qotgan. Bu bo'lsa o'zbekcha tarjimalarga ham o'tganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Ayrim hollarda tarjimalarda turli xatoliklarga yo'l qo'yilgan, oqibatda badiiy tarjimaning saviyasiga putur yetgan, bu esa o'z navbatida, o'quvchini hind adabiyotiga nisbatan o'zgacha xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, ba'zi bir frazeologizm, iboralar yoki badiiy-tasviriy vositalarni tarjima qilishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar shular jumlasidan bo'lib, ushbu tadqiqotimizda yuqorida ko'rsatib o'tilgan til birliklari orqali bilvosita tarjimani bevosita tarjima bilan taqqoslagan holda yutuq va kamchiliklarini aniqlashni mavzuning dolzarbligi sifatida belgiladik.

Magistrlik dissertatsiya mavzusi ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangan vaqtda Premchandning "Nirmala" romanining bevosita tarjimasi e'lon qilinmagan edi. Lekin, keyinchalik Amir Fayzullayev tomonidan ushbu asar bevosita aslyatdan tarjima qilinib, "Jahon adabiyoti" jurnalining 2016 yil, yanvar-fevral sonlarida nashr etilishi sababli mazkur ishimizda bilvosita va bevosita tarjima usullarini qiyoslagan holda yutuq va kamchiliklarini o'rganishga qaror qilindi. Ushbu holat ishimizning ahamiyatini yanada kengayishidan dalolat beradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ishning obyekti sifatida Premchandning "Nirmala" romanining rus va o'zbek tilidagi bilvositava bevosita tarjima matnlari tanlangan. Uning predmetini bilvosita va bevosita tarjima usullarining yutuq va kamchiliklari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Premchandning "Nirmala" asarining tarjimalarida frazeologizm, badiiy-tasviriy vositalarni tarjimada aks etishini qiyosiy tadqiq etish orqali bilvosita va bevosita tarjima usullarining yutuq va kamchiliklarini belgilab berish.

Qayd etilgan maqsadga erishish uchun ishda quyidagi **tadqiqot vazifalari** amalga oshiriladi:

- bilvosita va bevosita tarjimaning o'ziga xosliklarini aniqlash;
- frazeologizmlar va ularning o'rganilish tavsifi;
- "Nirmala" romanining bilvosita tarjimasida frazeologizmlarning aks etishini tahlil qilish;
- "Nirmala" asarining bilvosita tarjimasida frazeologizmlarni erkin so'z birikmalari shaklida o'girilish masalasini o'rganish;
- "Nirmala" romanining bevosita tarjimasida frazeologizmlarning tarjimai muammosini oydinlashtirish;
- "Nirmala" romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida badiiy-tasviriy vositalarni ifodalanishini tahlil qilish;
- bilvosita va bevosita tarjima usullarining yutuq va kamchiliklarini aniqlash.

Ilmiy yangiligi. Premchand qalamiga mansub "Nirmala" romanining o'zbek tiliga bilvosita va bevosita tarjimalari qiyosiy o'rganilgan ushbu tadqiqotda bilvosita va bevosita tarjimaning yutuq va kamchiliklari aniqlanib, ular bir-biriga qiyoslash orqali mukammal tarjimani amalga oshirish uchun qaysi jihatlarga alohida e'tibor berish masalasi ko'rib chiqilishimazkur dissertatsiya ishining yangiliginibelgilaydi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Bilvosita va bevosita tarjima usullarini o'zaro qiyoslash orqali, ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, "Nirmala" romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida frazeologizmlarni o'rnini aniqlash va ularni tarjimada berish usullarini belgilash, shuningdek, tarjima jarayonida badiiy-tasviriy vositalarning o'girish imkoniyatlarini aniqlashorqali yangi nazariy bilimlarga ega bo'lish kabilardir.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda tarjima qilish jarayoni va uni qanday amalga oshirish yo'llari haqida fikr-qarashlar ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, bilvosita tarjima maktabi bizga bir necha asrlar davomida xizmat qilib kelmoqda. Bevosita tarjima nazariyasiga oid ishlar ham 1935 yildan yuzaga kelgan. "Ma'lumki, o'zbek tiliga qilinayotgan umumiy

tarjima mahsulotlarining 60 foizini rus tilidan o'girilayotgan tarjima kitoblari tashkil etadi"¹. Mamlakatimizda badiiy tarjima asarlarini atroflicha tahlil etish borasida G'.Salomov, N.Komilov, J.Sharipov, N.Vladimorova, N.Otajonov, H.Karomatov, M.Xolbekov, H.Boltaboyev, G'.Xo'jayev, Q.Musayev kabi olimlarning izlanishlari yosh tarjimashunoslar uchun ham maktab ham ibrat sifatida qo'llanilmoqda.

Bevosita va bilvosita tarjima usullari haqida, xususan, G'.Salomov², Q.Jo'rayev³, Q.Musayev⁴, E.Ochilov⁵, S.Saidov⁶, A.Qahhor⁷, O'.Nurmatov⁸, E.Aznaurova⁹, N.Dosbayeva¹⁰kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy maqola va ishlarida keng yoritib berilgan.

O'zbek tilidagi frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev¹¹, Y.D.Pinxasov¹², M.Sodiqova¹³, I.Qo'chqortoev¹⁴, A.Isaev¹⁵, A.Rafiyev¹⁶, M.Abdurahimov¹⁷, B.Yo'ldoshev¹⁸,A.E.Mamatov¹⁹, Sh.R. Usmanova²⁰, Sh.Abdullayev²¹ kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan. Shu bilan birgalikda G'.Salomovning

¹ Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T., 2016. – B. 7.

² Саломов Г. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш // Таржима санъати. – Т., 1978.

³ Жўраев Қ.Яхши тағлама – деярли асл нусха // Таржима санъати. – Т., 1982.

⁴ Мусаев Қ.Таржима назарияси асослари: Дарслик – Т., 2005.

⁵ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. – T., 2014.

⁶ Саидов С. Давр тақозоси // Таржима санъати. – Т., 1976.

⁷ Қаҳҳор А. Таржимачилик ташвишлари // Таржима санъати. – Т., 1973.

⁸ Нурматов Ў. Билвосита таржимада матн танлаш // Таржима санъати. – Т., 1985.

⁹ Азнаурова Э. Икки тил оша // Таржима санъати. – Т., 1973.

¹⁰ Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида): Филол. фан. номз...дисс.– Т., 2011.

¹¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимиклик): Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1966.; Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Т., 1995.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг бирлашуви. – Т., 1992.

¹² Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Т., 1957.

¹³ Содикова М. Қисқача русча-ўзбекча барқарор иборалар луғати. – Т., 1994.; Содикова М. Қисқача ўзбекча – русча фразеологик луғат. – Т., 1989.

¹⁴ Қўчқортоев И. Бадий сўз устаси (А.Қаҳҳор ҳақида). – Т., 1967.

¹⁵ Исаев А. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар (Ўзбек ва қорақалпоқ тиллари): Филол. фан. ном... дис.– Т., 1976.

¹⁶ Рафиев А. Иборалар нуткимиз кўрки. –Т.: Ўзбекистон, 1985.

¹⁷ Абдурахимов М. Узбекская языковая афористика (фразеология) как объект системы учебных двуязычных словарей (На материале узбекского и русского языка): Дис... канд. филол. наук. – Т., 2002.

¹⁸ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1993.; Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1999.; Йўлдошев Б. Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Самарқанд, 1998.

¹⁹ Маматова А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1999.

²⁰ Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол.фан ном..дис. – Т., 1998.

²¹ Абдуллаев Ш.Д.Таржимаасарларидафразеологизмлар семантикаси.(Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. ном... дис. – Т., 2007.

“Tarjima nazariyasiga kirish” (1983), Q.Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” (2005), E.Ochilovning “Tarjimashunoslikning nazariy masalalari” (2014) kabi o‘quv qo‘llanma va darsliklarida frazeologik birliklarni tarjima qilish masalalari keng yoritib berishga erishilgan. Shuningdek, N.Nazarbayeva¹ning hindiy va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar borasida olib borgan ilmiy ishidan ham magistrlik dissertatsiyasi yozishda foydalanildi.

Badiiy-tasviriy vositalar tarjimashunoslik hamda adabiyotshunoslikda, G‘.Salomov², A.Y.Boboniyozov³, M.Mukarramov⁴, N.Mahmudov⁵, H.Dadaboyev⁶, G.Qobuljonova⁷, D.Xudayberganova⁸, A.Rustamov⁹, A.S.Rahimov¹⁰, Y.Ishoqov¹¹, I.T.Yormatov¹², M.Yoqubbekova¹³ shuningdek, rus olimlari B.V.Tomashevskiy¹⁴, S.L.Nevelova¹⁵, Y.Nekrasova¹⁶, M.B.Xrapchenko¹⁷, M.I.Cheremisena¹⁸ kabi tadqiqotchilarning ishlarida o‘rganilgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

¹सुश्रीनजीदानज़रबायेवा।हिंदीऔरउज़बेककेअंगिकमुहावरोंकातुलनात्मकअध्ययन।लघुशोधप्रबंध।आगरा।: केन्द्रीयहिन्दीसंस्थान,1994.

² Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т., 1983.; Саломов Ғ. Таржима ташвишлари // Таржима санъати. – Т., 1983.

³ Бобониёзов А.Ю. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фан. ном... дисс. – Т., 1995.

⁴ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т., 1978.

⁵ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс... док-ра филол.наук. – Т., 1984.

⁶ Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV. – Т., 2013.

⁷ Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. ном... дисс. автореф. –Т., 2000.

⁸ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2015.; Худойберганова Д.С. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т., 2013.

⁹ Рустамов А. Алишер Навоийнинг бадий маҳорати. – Т., 1979.

¹⁰ Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.

¹¹ Исоҳов Ё. Ташбеҳ // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. – Т., 1970.

¹² Ёрматов А.Т. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси. – Т., 1994.

¹³ Ёқуббеккова М. Ўзбек халқ ўланларида ўхшатиш. – Т., 2003.

¹⁴ Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959.

¹⁵ Невелова С.Л. Вопросы поэтики древнеиндского эпоса.Эпитет и сравнение. – М., 1979.

¹⁶ Некрасова Е. Сравнения общезыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиомов // Лингвистика и поэтика. – М., 1979.

¹⁷ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М., 1972.

¹⁸ Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск, 1976.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Izlanishning nazariy ahamiyati bilvosita va bevosita tarjima matnlarni qiyoslash orqali ular o'rtasidagi o'ziga hos jihatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ikki usulning topilmalari va kamchiliklarini belgilashdan iborat. Dissertatsiyada keltirilgan fikrlar, xulosalar qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik sohasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan "Tarjima nazariyasi", "Qiyosiy tilshunoslik va tarjima lingvistikasi", "Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari" fanlarini o'qitishda, shuningdek, "Hindiycha-o'zbekcha, o'zbekcha-hindiycha frazeologizmlarning izohli lug'at"lar tuzishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 90 betdan iborat.

I BOB. TARJIMASHUNOSLIKDA BILVOSITA VA BEVOSITA TARJIMA MUAMMOLARI

1. Bilvosita tarjima haqidagi nazariy konsepsiyalar

Tarjima millatlar orasida bevosita ma'naviy aloqa qilish quroli. Chunki u madaniy boyliklar, kishilarning ko'p asrlik ezgu armonlari, g'oyasi va qarashlari mujassamlangan asarlarni o'zga til sohibi bo'lmish xalqqa yetkazadi, xalqning ko'ngil daftarini namoyish etadi. Jahondagi turli-tuman tillarda yaratilgan badiiy adabiyot asarlari katta tarjima yo'lida ayribosh qilinadi. Tarjimasiz, faqat o'z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo'lmagan «sof» milliy «tiniq» madaniyat, adabiy o'zgarmas «toza til» yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. G'.Salomovning yozishicha, «tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tadigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika, tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqazo etuvchi ijodiy jarayondir»¹.

“Tarjima – asliyatni go'yaviy va badiiy aks ettirish formasidir. U o'quvchiga asliyatni mumkin qadar to'la va chuqur bilish imkoniyatini bera oladigan bo'lishi kerak»². O'quvchi tarjimani o'qib, asliyat haqida to'g'ri va to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Buning uchun tarjimada asarning umumiy mazmuni va badiiyligini to'g'ri berishning o'zi kifoya qilmaydi. Mutarjim tarjima qilinayotgan asarning o'ziga hosligini, muallifning individual uslubini ham bera olishi kerak. “Tarjima o'zining o'quvchisi uchun qilinadi: agar matnga shundayligicha olib o'tilgan realiya, ibora va tushunchalar o'quvchi idrokidan tashqarida qolsa, demak, tarjimaning kommunikativ maqsadi amalga oshmagan bo'ladi»³.

¹Саломов Г. Тил ва таржима. –Т., 1966. – Б. 147.

²Шарафиддинов О. Бадий таржиманинг баъзи принциплари // Таржима санъати. – Т., 1961. – Б.144 -159.

³ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 1980.– С. 102.

Tarjima bo‘lmaganida milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari yaratgan o‘lmas fan va san’at obidalarini yaratilmagan va dunyoga tanilmagan bo‘lar edi. Tarjima millatlararo totuvlikni, hamjihatlikni va do‘stlikni taminlovchi omildir. Tarjima ham adabiyot singari kitobxonga estetik zavq beruvchi bir manbadir. Bu estetik zavqni olish yoki ola olmaslik tarjimonning mahoratiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Tarjima yo‘li bilan milliy madaniyatlar bir-birini boyitadilar. Tilda, tafakkurda, madaniy adabiy hayotda, san’atda uning o‘ziga xos ta’siri sezilib turadi. Tarjima ayniqsa so‘z san’ati bo‘lgan badiiy adabiyotda katta o‘rin tutadi. “Tarjima tilga yangi g‘oyalar, fikrlar, tushunchalarni olib keladi. Jamiyatda yangicha ijtimoiy munosabatlar, qarashlarning qaror topishida xizmat qiladi. Adabiyotga yangi obrazlar, badiiy tasviriy vositalari arg‘umon etadi. Tarjima har qanday aloqalar zaminini tashkil etadi”¹. Tarjima nafaqat g‘oya va fikrlarni olib kiradi, u shuningdek millatlararo kezib yuruvchi “sayyoh syujetlar”² bilan o‘z adabiyotini boyitadi.

Tarjima qilish haqida K. Chukovskiy shunday degan edi: “Tarjimada harfga harfni moslama, balki tabassumga tabassumni, musiqaga musiqani, dil torlariga dil torlarini sozla”³. Demak, Chukovskiyga ko‘ra tarjimada asarning ichki mazmun-mohiyatini, yozuvchining go‘yasini to‘g‘ri va to‘la-to‘kis aks ettirish muhimdir.

Bu borada yana bir olim kanadalik tarjimashunos J. Delil nazariyasiga e’tibor qaratsak, u “tarjima jonli fikrni nutqda aks ettirishning aqliy operatsiyasi”⁴, deydi va bu jarayonning mohiyati, ma’no-mazmunini anglab olib, uni qayta ifoda etishdan iboratligini tushuntiradi.

Tarjima jarayoni nechog‘lik qiyin jarayon ekanligini izohlab Avgust Shlegelga o‘z maktublaridan birida (1796 yil, 23 iyul) Vilgelm Gumbolt: “Har qanday tarjima yechimi yo‘q masalaning javobini topishga bo‘lgan sayi harakatdir. Zero, tarjimon har safar ikki o‘t orasida qoladi, yo o‘z xalqining didi

¹ Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. – Т., 1980. – Б. 14.

² Веселовский А.А. Историческая поэтика. – М., 1966. – С. 7.

³ Чуковский К. Высокое искусство. – М., 1968. – С. 110.

⁴ Коммисаров В.Н. Общая теория перевода. – М., 2000. – С. 44.

va til meyorlariga qattiq tayangan holda asliyatga putur yetkazadi yoki bo‘lmasam, asliyatga sodiq qolgan holda o‘z xalqining tushunish va idrok etish qobiliyatiga yana bir qo‘shimcha kiritadi. Har ikkala tomonni ham bir muvozanatda tutib turish nafaqat qiyin, balki imkonsizdir”¹ deb ta’rif beradi.

A.Shlegel bunga: “Tarjimada ham jang maydonidagi jangchilar kabi ikki tomondan biri mag‘lub bo‘ladi - yo asliyat muallifi, yoki tarjimon”² deya javob qaytaradi. XIX asr o‘rtalarining yana bir tilshunos Morits Gaupl esa “tarjima bu – tushunishning qazosidir”³ deydi va asliyat o‘rnini to‘liq bosa oladigan tarjimani yaratish ilojsiz ekanligini izohlaydi. Tarjimaning bugungi kundagi muammolari azal-azaldan ham dunyo olimlar tomonidan keng muhokama qilingan bo‘lib, ular bu ta’riflarni bir til yoki xalq doirasida emas, balki umumtarjimashunoslik nuqtai nazaridan aytib o‘tganlar.

Bugungi kunda tarjimaga bo‘lgan ehtiyoj oshgan sari, uning saviyasiga bo‘lgan talablar ham kuchayib bormoqda. Hozirgi kunda nashr etilgan tarjimalarni har doim ham qoniqarli deb bo‘lmaydi. Asliyatdan tarjima qilish ya’ni bevosita tarjimaga o‘tish masalasi qanchalar oldinga surilmasin, taglama yoki bilvosita tarjima haligacha ustuvorlik qilmoqda. “Sovet davrida G‘arb adabiyoti ham rus tili orqali tarjima qilinganidan, rus tilidan qilinadigan tarjimalar o‘zbek tarjimachiligida 95 foizni tashkil qilar edi. Vositachi til orqali tarjimada yo‘qotishlar miqdorining ko‘pligi jihatidan u ijobiy hodisa hisoblanmasa-da, bilvosita tarjimaning xizmatidan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Chunki dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda ham barcha tillardan bevosita tarjima qilishning iloji yo‘q”⁴.

Tarjimashunos olimlarning bilvosita tarjimadan voz kechib, bevosita tarjimaga o‘tish kerakligi haqidagi fikr va qarashlari XX asr boshlaridanoq o‘rtaga tashlangan bo‘lsada, hozirgacha buning aksini uchratamiz. 1951 yilning dekabrda o‘tkazilgan milliy adabiyotlardan tarjima qilish masalalarini maxsus

¹ Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 2002. – С. 36-37.

² То же произведение. – С. 37.

³ То же произведение. – С. 38.

⁴ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2014. – B. 144.

ko‘rib chiqqan ittifoq yozuvchilarning kengashida taglamasiz, asl nusxadan bevosita tarjima qilishning zarurligi yetuk adiblar, tarjimashunos olimlar va mutarjimlar diqqatiga havola qilingan edi. XX asrning 30-yillarida ingliz tilidan qilgan tarjimalari bilan Sanjar Siddiq Yevropa tillaridan bevosita tarjima qilish an‘anasini boshlab berdi. Lekin bu an‘ana shu bilan qirq yilcha uzilib, 70-yillardan qayta tiklandi. Faqat istiqlol davriga kelib bevosita tarjima keng quloch yoya boshladi – ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari bilan birga birinchi marta yapon, xitoy, koreys, malay, indonez tillaridan bevosita tarjimalarga qo‘l urildi. Urdu, hind, afg‘on tillaridan tarjimalar miqdori va miqyosi kengaydi. Demak, istiqlol yillarimizda nafaqat rus va yevropa mamlakatlari adabiyoti, balki aynan sharq tillarida yozilgan asarlarni ham keng miqyosda tarjima qilish boshlandi. Bu yerda yana bir narsa ahamiyatga egaki, tarjima turlaridan ayniqsa, bevosita tarjima muhim ahamiyatga ega bo‘la boshladi.

Hech bir tarjimon asliyatni inkor etmaydi, iloji boricha uni o‘z ijodida saqlashga, har bir qatra tomchini avaylashga intiladi. O‘z ko‘nglida hamisha asliyatdan o‘girishni tilaydi, lekin har doim ham bunday bo‘lavermaydi. Dunyodagi eng bilimdon tilmochlar ham barcha tillarni bilmaganlari kabi tarjimalarni ham faqat asliyatdan o‘gira olmaydi. Shu bilan birga, o‘sha til vakillarining qalb kechinmalarini, dunyoni anglash, uni idrok etish, tasavvur qilishni qaysi tarjimon to‘liq tushuna oladi. “Har bir xalqning dilini tushunishning eng a‘lo vositasi uning tilini o‘rganishdir. Tarjimadan tarjima va taglama orqali tarjima qilish esa azbaroyi ehtiyoj va zaruratdan qilinayotgan noiloj ish usuli ekanligini unutmaslik kerak”¹. Demak, shu millatning faqat tilini biladigan odamning qo‘lidan faqatgina taglama qilish keladi. Tarjimoni haqiqiy tarjima yoki tarjima san‘ati darajasiga yetkazish uchun tarjimon shu xalqning butun boshli madaniyatini, tarixini, urf-odatini kerak bo‘lsa, mafkurasini chuqur o‘rganishi va anglashi lozim. Shundagina bu tarjima o‘z o‘quvchilarini topib, asarni barxayotligini taminlaydi.

¹ Саломов Ф. Тил ва таржима. – Т., 1966.– Б. 145.

Har qanday tarjima usuli o‘z yutuq va kamchiliklariga ega. Bu xoh adekvat, xoh ijodiy yoki erkin, so‘zma-so‘z yoki hijjaviy, bevosita yoki bilvosita tarjima usuli bo‘lmasin ularda asliyat mazmun va shakli, milliy xos hususiyatlarning saqlanish muammosi, turli grammatik kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi ham to‘g‘ridir, lekin bu kabi nuqsonlar oddiy kitobxonlar uchun ko‘rinmaydi. O‘quvchi uchun birinchi navbatdagi maqsad bu - kitobning mazmuni, unda ifoda etilgan qiziqarli voqea-hodisotlar va oliy g‘oyasini tushunishga bo‘lgan istakni qondirishdir. Jahon adabiyotini asliyatdan yoki boshqa tarjima orqali qilingani uni unchalik qiziqitirmaydi. Chunki shu kungacha qilingan aksar shunday tarjimalar o‘quvchilarga manzur bo‘lib kelgan va manzur bo‘lishda davom etmoqda. Axir bilvosita tarjima maktabi bir necha asrlik tajribaga ega. Qolaversa, bunday tarjimalarning ko‘pi rus tilidagi tarjimalar orqali kirib keladi. Xo‘sh bilvosita va bevosita tarjima aslida nima o‘zi? Ular qanday farqlanadi?

Ma’lumki, “bevosita tarjima deganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyat tilidan tarjima qilish, bilvosita tarjima deganda vositachi til orqali o‘g‘irish ko‘zda tutiladi.

Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud:

- muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasi orqali tarjima qilish;
- til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o‘g‘irish”¹.

S.Saidov bevosita va bilvosita tarjimaga quyidagicha ta’rif berish bilan birga ular o‘rtasidagi bazi farqlarni ham aytib o‘tgan: “Bevosita tarjima deganda bir tildagi asarning ikkinchi tilga to‘ppa-to‘g‘ri, originaldan o‘g‘irilishi tushuniladi. Bilvosita tarjima deganda esa, boshqa tillardan rus tiliga va u orqali o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan ishlar kiradi. Kuzatishlar tarjimaning bu ikki turi orasida katta farq borligini ko‘rsatadi. Bilvosita tarjima tarjimondan bevosita tarjimaga nisbatan ancha ko‘p kuch sarflashni talab qiladi. Chunki bevosita tarjima qilinganda mutarjimdan tilni chuqur va mukammal bilishdan tashqari, muhit va davrni o‘rganish, o‘sha xalqning urf-odatlari bilan yaqindan tanishish talab qilinsa,

¹Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2014. – B. 147.

bilvosita tarjimada, yuqoridagilardan tashqari, qo'shimcha yana bir xalqning tabiiy, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy yashash sharoitlari, urf-odatlar, madaniyati va hatto tilini o'rganishga to'g'ri keladi"¹. Demak, bilvosita tarjima usulidan foydalangan tarjimon zimmasidagi masuliyat ikki barobar oshadi va shu bilan birga uning tarjimasida bir emas ikki xalq ruhi qo'shilishi ehtimoli kuchayadi.

XX asr o'zbek tarjimachiligi uchun muhim davr bo'ldi. Tarjimachilikning mana shu davrida vujudga kelgan asosiy vositachi til - rus tili orqali tarjima qilish shakli hozirgi kungacha amalda qo'llanilmoqda. Ushbu yillarda Sharq va G'arb tillaridan o'zbek tiliga vositachi til orqali amalga oshirila boshlangan tarjimalarga tug'ilgan ehtiyoj tobora ortib bordi. O'sha davrdagi tarjimachilik holatini tahlil qilgan A. Qahhor shunday fikr bildiradi: "Biz doim asl nusxaning o'zidan tarjima qila biladigan tarjimon bo'lsa, deymiz. Lekin bunday tarjimonlar bizda hozircha u qadar ko'p emas. Nega endi biz milliy adabiyotlarni rus tili orqali olayotgan zavqi, quvonchidan o'quvchilarni mahrum qilishimiz kerak?"². Shuning uchun hozircha bilvosita tarjimadan mutlaqo voz kechish maqsadga muvofiq ish bo'lmasligi aniq.

Bu borada Yuriy Karasev shunday yozadi: "Shunday kun keladiki, hayotning o'zi bilvosita tarjima va taglamani inkor qiladi va biz "taglama muammosi" atrofida bosh qotirishdan qutilamiz, asl nusxadan qilingan ajoyib tarjimalarnigina o'qiymiz. Buning uchun ma'lum tilga "ixtisoslashgan" va ona tilini zo'r, teran, butun boyligi va nozikliklarigacha biladigan tarjimonlarni tezroq tarbiyalab yetishtirmog'imiz lozim"³.

Bilvosita tarjimaning kamchiliklari bo'lishiga qaramay, bevosita tarjimaga qaraganda bir necha asrlik tajribaga ega hamda uning ustida tarjimashunos olimlar salmoqli ish olib borganlar. Bundan esa ko'z yumib, bir sakrashda bevosita tarjimaga o'tib bo'lmasligi tushuniladi. Yana ba'zi holatlarda tarjimaga putur yetishi kuzatiladi, bu ham bo'lsa, taglamadir. Biron asarni o'z tiliga tarjima

¹ Саидов С. Давр такозоси // Таржима санъати. – Т., 1976. – Б. 203.

² Қаҳҳор А. Таржимачилик ташвишлари // Таржима санъати. – Т., 1973. – Б. 10.

³ Жўраев Қ. Яхши тағлама – деярли асл нусха // Таржима санъати. – Т., 1982. – Б. 16.

qilishni maqsad qilgan, ammo asliyat tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlangan matnga *taglama* deyiladi.

Taglamaga E.Ochilov: “Taglama (podstrochnik, taht ul-lafz) – mutaxassis yoki bilimdon tilshunos tomonidan til bilmaydigan tarjimonlar uchun birtildan ikkinchi tilga aynan, so‘zma-so‘z, jumlama-jumla, satrma-satr (she’riy tarjima uchun) tayyorlab beriladigan tarjima. Bu tayyor masalliqdan keyin tarjimon osh pishiradi, ya’ni taglamani qayta ishlab, badiiy tarjima darajasiga ko‘taradi. Bunda taglama vositachi matn sifatida maydonga chiqadi. Tarjima nazariyasi bilvosita tarjimoni, taglamani har qancha rad etmasin, tarjima amaliyoti bu vositalardan voz kecholmaydi: Jahondagi barcha tillardan bevosita tarjima qilishga o‘tilmaguncha bu tajribaga murojaat etilaveradi. Bungacha esa hali ancha bor... Binobarin, arman olimi L.Mkrtchyaning taglamaga haykal o‘rnatga arziydi degan fikri hali-beri o‘z kuchida qoladi. “Ammo, umuman olganda, taglama bo‘yicha tarjima qilishning imkoniyatlari cheklangan, gohi vaqtlarda esa bu adabiy hayotni qiyshiq ko‘zguda ko‘rsatishga sabab bo‘ladi.”¹ deb ta’rif beradi. Bunga ko‘ra: “Taglamani tarjimon-adabiyotchi yoki yozuvchi qayta ishlab, badiiy tarjima darajasiga olib chiqadi. Bu o‘rinda taglama vositachi matn bo‘lib xizmat qiladi. Taglama, aslida, ko‘ngil xushligidan tug‘ilgan narsa emas. Bu – asl nusxa tilini bilmaslik oqibati”². Demak, taglama tarjimonning eng zaif ammo shu bilan birga voz kechishi qiyin bo‘lgan qurolidir. Agar tarjima nazariyasi taglamani inkor etsa, u holda tarjima olamida bir kemtik hosil bo‘lish ehtimoli katta.

Lekin, taglama qanchalar yaxshi tayyorlangan bo‘lmasin, tarjimonga qanchalar qo‘l kelmasin, u baribir orqada qolib ketadi va o‘quvchi uchun noma’lum bo‘lib qolaveradi. Tarjimon asliyat tilini bilmasada, shu til vakillarining urf-odatlarini, turmush tarzini, asarda yoritilgan zamon muammolari va yozuvchi, uning uslubi, yashab o‘tgan vaqtdagi turli ijtimoiy va siyosiy masalalardan ham xabardor bo‘lishi, ularni to‘g‘ri talqin qilib hozirgi zamon bilan bog‘liqlik jihatini topa olishi kerak.

¹Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2014. – B.147.

²Саломов F. Tarjima masalalarini kompleks yrganiш // Tarjimasanъati. –T., 1978. – B. 47-86.

Agar qilingan tarjima hozirgi kun muammolarini hal qilishda qo'yilgan savollarga ozgina bo'lsada javob berolmasa, yoki oydinlashtirolmasa unda bu tarjima befoydadir. Bunga ko'ra: "Tarjimon ishga kirishishdan avval o'zi uchun o'sha yozuvchining uslubini, obrazlar sistemasini, asar ritmikasini belgilab olmog'i lozim"¹. Demak, tarjimon asliyatni o'g'irishda qanday usuldan foydalanilmasin, uning oldida eng birinchi navbatda asar muallifining ijod yo'lini o'rganish maqsadi turishi lozim.

"Puxta tayyorlangan taglama matnni tildan-tilga juda aniq ag'daradi-yu, lekin butun bo'yoqlar, musiqiylik, lirika, uslub, milliy bezaklar, leksik-frazeologik boylik, kolorit – bularning bariga muallif va original bilan bevosita muloqotda bo'lgandagina erishish mumkin. Afsuski, taglama – xiyonatkor, deb nechog'li e'tirof etilmasin, bu hol asarlar misolida qanchalik tasdiqlanmasin, hozirgacha deyarli hech narsa o'zgargani yo'q"². Demak, taglama xizmatidan foydalanishni cheklash yoki voz kechishdan avval sifatli, to'g'rida-to'g'ri o'g'irishga qodir, asliyatning ichiga kira oladigan tarjimonlarni sonini ko'paytirishimiz lozim.

"Aksariyat hollarda taglama va u orqali qilingan tarjima muallifni shu qadar o'zgartirib yuboradiki, ba'zan hatto muayyan tarjima ayni yozuvchi yoki shoirning qaysi asariga "mos kelishi"ni ham aniqlash amrimahol bo'lib qoladi! G'afur G'ulomning "Встреча будущего" ("Kelajak istiqboliga") to'plamidan (Toshkent, 1968) o'rin olgan "Kuz keldi" she'rining ikki tarjimasi shoirning ikkita boshqa-boshqa asari sifatida taqdim etilishi buning yorqin dalilidir"³. Demak, asarni bir necha tarjimon yakka tarzda o'g'irsa, ularning tarjimalari ham bir biridan farq qilgani kabi bilvosita tarjima qilingan asar ham bevosita tarjimadan farq qiladi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, bilvosita tarjimaning mehnatisiz hozirgi kun o'zbek adabiyotini tasavvur qilish ham qiyin. Chunki, bazi holatlarni hisobga olmaganda (bevosita turkchadan, qisman hindcha, urdu, pushtu, arab, fors

¹ Чуковский К. Высокое искусство. – М., 1968. – С.170.

² Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. – T., 2014. – B. 148.

³ O'sha kitob. – B. 147.

tillaridan tarjima qilishga urinishlar bo‘lib turibdi) ko‘p hollarda butun G‘arbiy Yevropa, Janubiy Amerika va Afrikaning qariyb hamma adabiyotlari o‘zbek tiliga ruscha tarjima orqali kirib kelmoqda. Misol tariqasida birgina “Jahon adabiyoti” jurnalining 2016 yildagi yanvar-dekabr oylarida nashr etilgan sonlarida bilvosita tarjimalar soni 65 tani, bevosita tarjimalar soni esa, 45 tani tashkil qiladi. Aytilgan fikrlarda xulosa chiqarib, bilvosita tarjimaning quyidagi yutuqlarini sanab o‘tsak:

1) bilvosita tarjima jahon adabiyotlarini o‘z tiliga o‘g‘irishda mutarjimlar uchun qulaylik yaratadi, ya’ni vositachi tilni mukammal bilgan tarjimon uchun asliyat tilini bilmasligi uning faoliyatida to‘sqinlik qilmaydi;

2) bir tarjimon bir necha xalq vakillarining durdona asarlarini tarjima qilish imkoniyatiga ega bo‘linadi;

3) kitobxon eng uzoq mamlakat xalqlari bilan ham adabiyot orqali yaqindan tanishadi;

4) jahonning turli tillarini biladigan tarjimonlarni yetishib chiqishiga qadar kitobxonlarning jahon adabiyotiga bo‘lgan talab va ehtiyoji nisbatan qondiriladi.

Mamlakatimizda hozirgi paytda asliyatdan tarjima qilish bilan bir qatorda, vositachi til orqali o‘g‘irish amaliyoti ham keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan bir paytda, tarjimashunos olimlar asl nusxadan bevosita tarjima qilish ishiga to‘la xayrixoh bo‘lsalar, bilvosita tarjima amaliyotiga nisbatan ular orasida turli-tuman qarashlar hukm suradi. Ba’zi tadqiqotchilar vositachi til orqali tarjimani butunlay qoralasalar, ayrimlari bu usul bilan tarjima qilishni afzal deb biladilar.

Bilvosita tarjima usulidan foydalangan o‘zbek tarjimoni asl nusxa tilidan mutlaqo ajralib, vositachi tilning ifoda shakllariga beriluvchan bo‘lib qoladi. Vositachi tilidagi tarjima jarayonida vujudga kelgan yanglishuvlar ko‘p hollarda o‘zbek tilidagi tarjima matniga ham shundayligicha o‘tib qoladi. “Masalan, S.Saidov nemis adibasi Anna Zegersning “Barhayot o‘liklar” romanining 1962 yili rus tilidan A.Abdullayev va H.Ro‘zmatov tomonidan qilingan tarjimasini asl nusxa bilan chog‘ishtirib, 308 ta xato mavjud ekanligini aniqlaydi. Bu xatolarning

109 tasi yoki uchdan bir qismi, rus tarjimoni yo‘l qo‘ygan nuqson, bularni o‘zbek tarjimonlari aynan takrorlash bilan birga o‘zlari ham 199 ta xato qo‘shganlar”¹.

Yana bir misol: “Sinchalakning nemischa tarjimasini o‘zbekcha asli bilan solishtirganda esa 184 ta nuqson qayd qilindi. Shundan 74 tasi oraliq tekstdan o‘tib ketgan, 110 tasi nemis tarjimonining aybi bilan yo‘l qo‘yilgan. Agar kitob bevosita asl nusxadan nemischalashtirilganida, qayd etilgan kam-ko‘stlarning ma’lum qismi takrorlanmagan bo‘lar edi”². Vositachi tilda ijod qiluvchi tarjimonning asliyatdagi muayyan o‘rnini ma’lum maqsadni ko‘zlab tarjimani qisqartirishi yoki qo‘shimcha qilishi natijasida mazmunda chalkashlik kelib chiqadi. Buning oqibatida bilvosita tarjimada asar badiiy yaxlitligini saqlab qolishga urinishda ko‘pincha qator muammolarga duch kelinadi.

“Tojik, turkiy tillar oilasiga kiruvchi qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, tatar, turkman va boshqa tillardan tarjima qilinadi. Qolgan barcha hollarda vositali tarjimaga ko‘z tikiladi. Bu ahvolda o‘zbek tarjimoni original tilidan mutlaqo ajralib qolgan holda vositali tarjima ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketaveradi. Yana shunisi ham borki, ruscha tarjimada mavjud bo‘lgan va o‘zbek tiliga ko‘r-ko‘rona ko‘chirilgan barcha xatolar va yanglishuvlarga tarjimon, turgan gap, javob bermaydi. Ruscha tarjima qanday bo‘lsa, o‘zbekchasi ham (yangi nuqsonlar bilan birmuncha “boyigan” holda) xuddi shunday bo‘lib chiqaveradi”³. Vositachi til orqali tarjima qilayotgan mutarjim asliyat tilini bilmasada, uning muallifi, muallif yashagan zamon va makonni o‘rganishi, asarda hikoya qilingan xalqning urf-odatlarini bilan qiziqishi ham bu kabi nuqsonlarning ko‘payishini oldini olishga yordam beradi.

N.Chukovskiy o‘zining “O‘ninchi san’at ilohasi” nomli maqolasida bilvosita tarjima usulga qarshi chiqib: “... Mopassanni rus tilidan tarjima qilish qanchalik bemanilik bo‘lsa, Lev Tolstoyini ozarbayjonchadan o‘g‘irish ham shunchalik

¹Нурматов Ў. Билвосита таржимада матн танлаш // Таржима санъати. – Т., 1985. – В. 147.

²Саидов С. Давр тақозоси // Таржима санъати. – Т., 1976. – Б. 205-206.

³ Саломов Ф. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси // Таржима санъати. – Т., 1978. – Б. 63.

behuda ish”¹ – deb fikr bildiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Bilvosita tarjimada bir necha muhim kamchilik mavjudligi aniqlandi:

1) har qanday tarjima asari o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlari va birliklarini ma’lum darajada o‘ziga singdiradi, bilvosita tarjimada esa, asiyatdan emas, balki vositachi til xususiyatlari o‘tadi;

2) bilvosita tarjima vositachi tildagi adabiy muhit va zamonga moslashadi;

3) bilvosita yoki taglamadan o‘g‘irgan tarjimon muallif uslubi va g‘oyasiga emas, balki vositachi tarjima muallifiga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi;

4) vositachi til tarjimoni asliyatni o‘z xalqi dunyoqarashiga moslashtirgan va erkin o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lsa, yoki aksincha asarning qaysidir qismini ataylab tushurib qoldirgan bo‘lsa (*XVII-XVIII asrlarda fransuz yozuvchi va tarjimonlari o‘z tushunchalaridagi “estetik mukammal” san’at asarini kitobxonlarga taqdim etish maqsadida, asarda ularning mukammal san’at asari haqidagi tushuncha va tartib qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan parchalarni tushurib yoki erkin tarzda o‘zgartirib tarjima qilish urf bo‘lgan va bu Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi tarjimonlar faoliyatiga ham ta’sir o‘tkazgan bo‘lib XIX asrning boshlarigacha saqlanib qolgan*)² bilvosita tarjima mutarjimi ham o‘zi bilmagan holda asliyat shakl-mazmuniga putur yetkazadi;

5) har bir tarjima ma’lum darajadagi xatolardan xoli bo‘lmasligini hisobga olsak, vositachi tilning xatolari bilan qo‘shilib, yangi tarjimada ular yanada ko‘payadi.

Aksar hollarda, bilvosita tarjimada asliyat ruhini, muallif uslubini, milliy xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bevosita tarjimaga qaraganda kamayishi kuzatiladi. “Bilvosita tarjimada ko‘pincha originaldan uzoqlashish yuz beradi. Tarjima originalga har qancha yaqin bo‘lmasin, u ikkilamchi asar bo‘lib qolaveradi. Buni tan olish tarjima san’atini kamsitish emas, chunki har bir davrning tarjimaga o‘z talabi bor: vaqt o‘tishi bilan original o‘zgarmagani holda,

¹Мусаев Қ.Таржима назарияси асослари: Дарслик. – Т., 2005. – Б. 28-29.

² Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 2002. – С.33.

tarjima eskirib boradi. Tarjimadan yana boshqa bir tilga o'girilganda bu xil tarjimaning o'ziga xos prinsiplariga amal qilinsa, originalga yaqinlikni saqlab qolishning ma'lum imkoniyatlarini topish mumkin"¹. Bilvosita tarjima usulidan bevosita tarjima usuliga o'tilsa, nafaqat asliyat g'oyasi, balki uning zamon talablariga javob beradigan har jihatdan mukammal nusxasi ham olinadi.

2. Bevosita tarjimaning o'ziga xos jihatlari

Bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish masalasi o'tgan asrning oltmishinchi yillaridayoq badiiy tarjima muammolari qatorida jiddiy munozara va bahslarga sabab bo'ldi. Tarjima asarlari sifatini yaxshilash borasida olimlar bir qancha takliflar berdilar. Ular orasida bevosita tarjima shaklini oqlab chiquvchilar ko'plab topildi. E.Aznaurova o'zining "Ikki til osha" nomli maqolasida quyidagicha umumlasmalar chiqargan: Tadqiqotchilarning bir guruhi "mumkin qadar ko'proq tarjimalar berilishi talab qilingan davr o'tib ketdi, hozirgi talab esa iloji boricha yaxshiroq tarjima qilishdan iborat, badiiy tarjima uchun asos qilib olinadigan hatto eng sifatli taglama ham originalning badiiy nafosati va milliy xususiyatlarini aks ettira olmaydi"², deya fikr bildiradilar. Boshqa guruh vakillari: "asarni bevosita asliyat yozilgan tildan o'g'irish, bevosita tarjima jarayonida yuzaga chiqadigan qiyinchiliklarni yengish hamda ushbu tarjima shaklini takomillashtirish uchun tarjimon til biladigan mutaxassis filolog bilan hamkorlikda ijod qilsin"³, degan taklifni ko'tarib chiqadilar. Mana shu takliflarning amaliy isboti sifatida, o'sha paytlardayoq, bilvosita va bevosita tarjima usullari qiyoslanib, ulardan vujudga keladigan yutuq va kamchiliklar inobatga olindi.

Bevosita tarjima asl nusxaning mazmun va shakliga o'xshash bo'ladi. Bu bevosita tarjimaning afzalligini yana bir karra tasdiqlaydi. Boringki, bevosita tarjima ancha-muncha sifatsiz amalga oshirilgan taqdirda ham baribir asliyatga

¹ФиёсовН. Билвосита таржима ва миллий тийнат // Таржима муаммолари (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Т., 1991. – Б. 82.

²Азнаурова Э. Икки тил оша // Таржима санъати. –Т., 1973. – Б. 223.

³Ўша китоб. – Б. 224.

bilvosita tarjimadan ko‘ra yaqin bo‘lib qolaveradi. Albatta, bevosita tarjima ham birlamchi hodisa emas. Eng yaxshi tarjima ham asliyatning o‘rnini bosolmaydi. “Agar badiiy asar – obyektiv voqelikning in’ikosi bo‘lsa (0^1), uning boshqa tilga tarjimasi – in’ikosning in’ikosidir (0^2), tarjima orqali yuzaga kelgan tarjima esa in’ikos in’ikosining aks etishidir (0^3)”¹. Demak, bevosita tarjima ma’lum darajada bilvosita tarjimadan ustun bo‘lib, uning quyidagi yutuqlarini sanab o‘tish mumkin:

1) bevosita tarjima asliyatga har jihatdan yaqin bo‘lgan adekvat asarni yaratishga imkon beradi;

2) tarjima jarayonida duch kelinadigan bir necha muammolar, jumladan frazeologizmlar, turli o‘xshatish, hissiy-tasviriy vositalar, tarixiy-milliy koloritlarni asliyatniki bilan ekvivalent yoki o‘xshash variantda tarjima qilish imkoniyati yanada oshadi;

3) muallif uslubi, ruhiy hamda psixologik holati mumkin qadar saqlanib qolinadi;

4) asarning shakli va yozilish janriga alohida e’tibor qaratiladi;

5) muallifning asl g‘oya va qarashlari, makfurasi, ichki kechinmalarining asarga ta’siri tarjimon tomonidan ilg‘ab olinishiga imkon yaratiladi.

Tarjimashunos olimi N.T.Dosbayeva: “Har qanday tarjimada asar o‘z fazilatlaridan ma’lum darajada mahrum bo‘ladi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Vositachi tilga xos ma’lum g‘oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy yondashishlar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjimadan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg‘ishlar vujudga kelishi mumkin. Tarjimonning asliyat tili va matn xususiyatlaridan bexabar bo‘lishi tarjimada adekvatlikka erishish jarayonida qator muammolarni keltirib chiqaradi”² deb takidlaydi.

¹ Саломов Ф. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси // Таржима санъати. – Т., 1978. – Б. 59.

² Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида): Филол. фан. номз...дисс. – Т., 2011. – Б. 32.

Ammo bundan, asliyatdan, bevosita o'g'irish bilanoq tarjima qoyilmaqom bo'ladi, bu ijod mahsuli benuqson tajassum topadi, degan xulosa ham kelib chiqmasligi kerak. Hozirga qadar asliyatning o'zidan, ya'ni bevosita o'g'irilgan xorijiy bir talay adabiyot namunalari matniga nazar tashlasak, ularda boshqa bir nuqson – o'zbek tili boyliklaridan yetarlicha foydalana bilmaslik, ba'zan esa hatto tilni buzish hollariga ham duch kelinadi. Bundan kelib chiqadiki, bilvosita tarjima singari, bevosita tarjima usulida ham bir qator muammolar mavjud, jumladan:

1) bevosita tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimonlar sonining nisbatan kamligi;

2) bevosita tarjimaning sifati ko'p hollarda talabga javob bermasligi;

3) tarjima jarayonida mutarjimning soxta ekvivalent, lakuna va milliy kolorit kabi tarjimashunoslik sohasining nozik qirralariga befarq qolishi kabilar. Demak, bevosita tarjima ustida ham ishlash kerak va tarjima sifatini yaxshilash, kitobxon qo'liga tarjima asarini emas, balki asliyat kabi badiiy asar durdonasini yetkazib berilmog'i uchun ushbu muammolarga yechim topish lozim.

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi, bunda to'liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonda badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin. Tarjima qilinayotgan asar tili va o'z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o'zi tasvirlagandek tasavvur qilinishi va aks ettirilishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko'payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o'zgaradi, bu esa muallifning individual uslubini yo'qolishiga va ko'plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o'ziga xosligi tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakteri, muallifning badiiy ijodiy uslubini asar

qahramonlari nutqini tarjimon imkon borisha to'g'ridan-to'g'ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

I bob bo'yicha xulosalar

Bilvosita tarjima usuli kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramay, hozirgi kungacha o'z samaradorligini yo'qotmagan. Undan voz kechish tarjimashunoslik va badiiy adabiyot sohalarida kemtiklar hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bilvosita tarjima usulidan foydalanayotgan tarjimon asliyat tilini bilmasada, mazkur asar muallifi, uning uslubi va asarlaridagi ko'tarilgan dolzarb masalalar, muallif yashab, ijod qilgan zamon va makon muhiti, tarixi, xalqining madaniyati,

mafkurasi, urf-odatlari bilan tanishib chiqmog'i lozim. Bu tarjimon uchun asarning asl mohiyati va g'oyasini anglashga zamin yaratadi.

Har qanday asarni vositachi tarjima orqali o'z tiliga o'g'irishdan avval, vositachi tarjimon tarjimasiga oid tanqidiy fikrlarni chuqur o'rganib chiqish lozim. Bilvosita tarjima usulidan foydalangan o'zbek tarjimoni asl nusxa tilidan mutlaqo ajralib, vositachi tilning ifoda shakllariga beriluvchan bo'lib qoladi. Vositachi tilidagi tarjima jarayonida vujudga kelgan yanglishuvlar ko'p hollarda o'zbek tilidagi tarjima matniga ham shundayligicha o'tib qoladi. Aksar hollarda, bilvosita tarjimada asliyat ruhini, muallif uslubini, milliy xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bevosita tarjimaga qaraganda kamayishi kuzatiladi.

Har qanday tarjimada asar o'z fazilatlaridan ma'lum darajada mahrum bo'ladi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Vositachi tilga xos ma'lum g'oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy vositalar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjimadan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg'ishlar vujudga kelishi mumkin.

Bevosita tarjima asl nusxaning mazmun va shakliga o'xshash bo'ladi. Bu bevosita tarjimaning afzalligini yana bir karra tasdiqlaydi. Boringki, bevosita tarjima ancha-muncha sifatsiz amalga oshirilgan taqdirda ham baribir asliyatga bilvosita tarjimadan ko'ra yaqin bo'lib qolaveradi. Bevosita tarjimalar sonini ko'paytirish uchun, avvalo dunyoning turli tillarni o'rganish masalasiga yanada chuqurroq e'tibor qaratilishi va tarjimonlar saviyasini yanada yaxshilash tizimini rivojlantirish lozim.

Bevosita o'zbek tiliga o'g'irgan tarjimon asliyat milliy ruhini vositachi tilning ta'sirisiz his qila olgani uchun ko'p holatlarda milliy tushunchalari bekami-ko'st aks ettira oladi. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklashga imkoniyatlar yetarli bo'lishi bilan birga, tarjimon yozuvchining dunyoqarashi, ichki kechinmalari uning individual uslubini shakllantirsa, asar g'oyasi ham shunga bog'liq holda vujudga keladi.

II BOB. PREMCHANDNING “निर्मला” ROMANINING BILVOSITA VA BEVOSITA TARJIMALARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING IFODALANISHI

1. Frazelogizmlar va ularning tasnifi

Har bir asaro ‘zidanafaqatma’ lum bir voqea-hodisotlarni balki, muallifning olamni idroketish qobiliyatini, uyashabo ‘tgan zamon va ma’konning og‘riqliligi muammolarini, psixologik kayfiyatini ham mujassam etadi.

Premchand shubhasiz hind adabiyotining yorqin namoyondalaridan biridir. Uning butun hayoti ijod qilish va insonlar qalbida adabiyotga mehr-muhabbat uyg‘otishdan iborat.

“Hind adabiyotiga tanqidiy realizm tendensiyasining kirib kelishida Premchandning xizmati kattadir. Adib asarlarining asosiy g‘oyasi past tabaqali aholining hayotini, ularning jamiyatdagi o‘rni va oila muammolarini, ayollarning oilada tutgan o‘rni va beva qolgan ayollarning hayotini, inson hayotiga mazmun bag‘ishlash o‘rniga uni yanada murakkablashtirib yuboradigan urf-odatlarini, xalqning qiynalib hayot kechirishi kabi muammolarni ochib berishga bag‘ishlanadi”¹.

Premchand ijodining gultojlaridan biri bo‘lgan “Nirmala” romanida ham yuqorida keltirilgan masalalar ko‘tarilgan bo‘lib, bu kabi muammolar hech bir zamonni cheklab o‘tmagan va hali hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu asarni qayta va qayta tarjima qilinishining ham sababi shundadir balki. “Nirmala” romani o‘zbek tiliga ilk bor rus tili orqali Sharif Tolibov tomonidan tarjima qilinib, 1967 yilda nashr qilingan. Ushbu bilvosita tarjima XX asr kitobxonlariga manzur kelgan va ularni to‘laqonli ravishda qoniqtirgan. Taniqli tarjimonlardan biri Amir Fayzullayev ushbu asarni bevosita hindiy tilidan tarjima qildi va bu tarjima 2016 yilning yanvar-fevral oylarida “Jahon adabiyoti”

¹Ходжаева Т.А. Ҳиндистон халқлари адабиёти (Янги ва энг янги давр). – Т., 2010. – Б. 92.

jurnalida nashr etilib, kitobxonlar e'tiboriga havola etildi. Har ikkala tarjima o'z zamoni uchun mos vahos ekanligi ham diqqatga sazovor. Lekin, shunga qaramay tarjimalarda bizning nazarimizda ba'zi bir muammolar mavjud. Agar kitobxon ulardan faqat bittasini o'qigan bo'lsa, ularni payqamasligi mumkindir, ammo har ikkala tarjima bilan tanishib chiqqan kitobxonda bu roman borasida bir necha savollar tug'iladi. Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan qaraganda esa, ushbu tarjimalarni o'zaro asliyat bilan solishtirganda bir biridan qiziq fikr-mulohazalar chiqishi aniq.

“Har bir tarjima – o'z davrining mahsuli hisoblanadi. Bundan bir necha yillar muqaddam yaratilgan tarjima asari bilan uning keyingi talqinlari o'zaro chog'ishtirilsa, turli davrlarda yashagan tarjimonlarning hayotga munosabati, asar muallifini tushunish darajasi, ularning tarjimonlik mahorati o'rtasida sezilarli tafovut yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Shuningdek, adabiy tilning har xil davrlarda farqli kamolot darajasida bo'lganligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi”¹. Ilmiy ishning ushbu bobini “Nirmala” romanining bilvosita va bevosita tarjimamalarida frazeologizmlarning o'girilishini qiyoslab chiqildi.

Muqarrarki, badiiy asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon frazeologizm tarjimasiga duch keladi. Har bir millat, har bir yurtning o'z tili, milliy koloriti, gapirish uslubi bo'lgani kabi yuqoridagi omillarni ifodalovchi frazeologizmlar ham mavjud. Frazeologiyani o'rganishga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Ferdinand de Sossyur o'z davrida “frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklar”² sifatida qayd etib o'tdi. Keyinchalik “Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheyf frazeologik birliklar haqida: “til taraqqiyotining ma'lum bosqichida yuzaga kelgan o'zgarishlar yangi ma'nolarni yaratadi, ularni ifodalashda alohida qoliplar shart bo'lmay, balki biror eski, ya'ni tilda avvaldan mavjud bo'lgan materiallardan foydalaniladi”³ degan edi.

¹ Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида): Филол. фан. номз...дисс.– Т., 2011. – Б. 32.

² Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. – М., 1977 – С. 157.

³ Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. ном...дисс. – Т., 1998. – Б. 3.

Sh.Ballining “Stilistikadan ocherklar”, “Fransuz tili stilistikasi” kabi asarlarida soʻz birikmalarini sistemalashtirib, ularning leksik-grammatik xususiyatlarini, anglatgan maʼnolari va sintaktik oʻziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlitligicha qoʻllaniladigan birliklar ekanligini isbotlashga harakat qildi. Sh.Balli “Semantika frazeologizmlarning mutlaq belgisi¹ ekanligini takidlaydi va ushbu belgilarni naqadar muhimligini uqtiradi.

XX asrning 20-yillaridayoq, rus tilshunoslari frazeologizmlarni tilshunoslikning alohida tarmogʻi sifatida oʻrganish zarurligini isbotlay boshlagan. E.D.Polivanov: “Kelajakda frazeologiya ham fonetika, morfologiya kabi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda oʻz oʻriniga ega boʻlishi zarur”², - deb fikr bildiradi.

B.Yoʻldoshevga koʻra: “Frazeologizmlarning oʻrganilish tarixi uch davrga³ ajratilib, uning keng qamrovli va koʻlamli oʻrganilishi uchinchi davrga toʻgʻri keladi. XX asrning 60-yillardan rus tilshunosligida frazeologizmlarning turli nazariy va amaliy jihatlari oʻrganila boshlandi. Frazeologiya masalalarini tadqiq etish, ayniqsa, V.V.Vinogradovning fundamental ishlaridan keyin jadal tus oldi⁴.

Shunisi ahamiyatliki, qayd etilgan davrda frazeologizmlarning oʻrganilishi xilma-xil metodlari ham shakllandi. Bu oʻz navbatida frazeologizmlarni oʻrganishni jadallashtirdi, yanada chuqur ilmiy va amaliy tahlilga imkon yaratdi. Xususan, frazeologizmlarni tadqiq etishning identifikatsion (Sh.Balli, A.V.Kunin), kontekstologik (N.N.Amosova), variatsion (V.A.Arxangelskiy), frazeologik aplikatsiya (V.P.Jukov), kompleks (I.I.Chernisheva), struktural-tipologik (L.I.Royzenzon. Y.Y.Avaliani), qiyosiy-diaxron tahlil (A.G.Nazaryan) kabi metodlari shakllandi va shunday metodlar asosida keng oʻrganildi⁵.

Oʻz navbatida, oʻzbek tarjimashunos olimlari tomonidan frazeologik birliklar, umuman, frazeologizmlarni tarjima qilish borasida koʻplab izlanishlar

¹ Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – С. 98.

² Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – М., 1928. – С. 61.

³ Ёўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1993.

⁴ Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология лексикография – М., 1977. – С.118-161.

⁵ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1999. – Б. 14-15.

olib borilgan. Ayniqsa, G‘aybulla Salomovning “Rus tilidan o‘zbekcha maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir”¹ darsligida frazeologik birliklar tarjimasi masalasi keng ochib berilgan.

Tarjimashunos olim Qudrat Musayevning fikricha: “Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo‘lmish frazeologik birliklarni tarjimada chuqurtalqin etish tarjima amaliyotining o‘ta murakkab va shu bilan birga, juda ma’suliyatli masalalaridan hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko‘ra ko‘proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularning ushbu vazifalarini hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin qilishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo‘lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog‘liqdir”². Demak, frazeologik birliklar har bir tilning ajralmas bo‘lagi va nutq ko‘rkidir.

“Frazeologizm deganda ko‘chma ma’no anglatadigan, ibora yoki turg‘un so‘z birikmalari tushuniladi. Ularni tilda frazeologiya sohasi o‘rganadi”³. Tilda frazeologizmlardan tashqari, maqol, matal, aforizmlar ham mavjud. Ularda ham o‘zgarmas barqaroq qolip, ko‘chma ma’no mavjud. Iboralar tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga emas, ular asosidagi ustama, ya’ni ko‘chma ma’no xususiyatiga ega. Ular obrazli ma’no ifodalash bilan farqlanadi. Sh.Rahmatullayev bu hodisalarning faqat bir turini ya’ni so‘zlarning turg‘un birlashmalarini til birligi sifatida baholaydi. “Frazeologizm tilda ibora, turg‘un so‘z birikmasi, frazeologik birikma, frazeologik birlik”⁴ deb yuritiladi. Ishimizda aynan Sh.Rahmatullayev klassifikatsiyasini asos qilib olamiz va ish davomida uni takroridan qochish maqsadida ibora, frazeologizm, frazeologik birlik yoki frazeologik birikma deb qo‘llaymiz. Tarjima jarayonida frazeologizmlarni boshqa

¹Саломов Ғ. Рус тилидан мақол, маталва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. Ўқув қўлланма. – Т., 1961.– Б. 162.

²Мусаев Қ.Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Т., 2005. – Б. 183.

³Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док-ри. дисс. – Т., 1999. – Б. 19.

⁴ Абдуллаев Ш.Д. Таржимаасарларида фразеологизмлар семантикаси. (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. ном... дис. – Т., 2007.–Б. 10.

tildagi ekvivalent yoki sinonimlari bilan berilishi, shuningdek, yozuvchining frazeologizmlarni qo'llashdagi maqsadini yorqin ochib berishga harakat qilindi.

Shu o'rinda qiziq bir vaziyatga duch keldik. Frazeologiyani o'rganish obyekti "tor" va "keng" ma'noda tushunish davom etmoqda. Natijada ikki xil fikr tarafdorlari ayon bo'ldi. Masalan, akademik S.K.Kenesbaev frazeologiya obyekti keng tushunib, unga barcha turg'un birikmalarni kiritadi va turg'unlik hamda tayyor holda yaxlit mavjudlik belgilari ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyatdir¹. S.N.Muratov esa, "frazeologizmlar turg'un so'z birikmalarining bir tipidir"² - deb takidlaydi.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologizmni keng va tor ma'noda tushunish davom etmoqda. Masalan, prof. Sh.Rahmatullayev frazeologiyani tor ma'nda tushunuvchilar qatorida turadi. Olimning fikricha, "Frazeologik obyekt ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklardan iborat"³.

Y.D.Pinxasov esa frazeologik doirani keng tushunib, "unga sof frazeologizmlardan tashqari, obrazli iboralar, metaforik ifodalar, maqollar, aforizmlar, birikma terminlar, shtamplashgan iboralar"⁴ kabi so'z birikmalarini ham kiritadi.

B.Yo'ldoshev o'zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologiyani keng tushunuvchi olimlar tarafdori bo'lib chiqadi. Muallif "umumlashgan ma'no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to'laligicha ko'chma ma'no ifodalovchi turg'un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklardir"⁵ - deb hisoblaydi.

Shuningdek, tarjimashunos olim E.Ochilov tomonidan ham izoh berilgan: "Frazeologizmlar – turg'un so'z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)lar" deya ta'rif berilgan va ularni tarjima qilishning uch usuli keltirilgan:

¹Кенесбаев С.К. О некоторых особенностях фразеологических единиц казахском языке // Серия филологии искусствования. Вып. 1-2. – Алма-Ата, 1954. – С. 6-28.

² Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. – М., 1961. – С.130.

³Рахматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. – Т., 1970. – Б. 56.

⁴Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Т., 1969. – Б. 55-65.

⁵Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док-ри. дисс. – Т., 1993. – Б. 297.

“1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) muqobil variant qo‘yish; 3) frazeologizmlarni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanadi”¹.

Bundan tashqari Qudrat Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli darsligida “frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga asosan to‘rt yo‘l bilan: 1) asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma’no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar; 2) boshqa xossalari farq qilgani holda, ma’no va uslubiy vazifasi o‘xshash muqobil variantlar; 3) kalka usulida; 4) tasviriy usulda tarjima qilish kabi yo‘llar keltirib o‘tilgan”².

“Turg‘un birikmalar hozirga qadar turlicha nomlanib kelmoqda. Jumladan, “Лингвистический энциклопедический словарь”³da bunday birikmalarning barchasi “frazeologizm” atamasi ostida ifodalangani holda, idiomalar, maqol va matallar; qanotli so‘zlar, aforizmlar; *Ishlar qanday? Kayfiyatlar yaxshimi?* Singari shtamplar uning tarkibiga kiritiladi. Frazeologizmning muhim va universal belgisi sifatida mazmuniy transpozitsiya, turg‘unlik va tayyorlik belgilari e’tirof etiladi”⁴. Keyingi yillarda yuzaga kelgan qator ishlarda frazeologiya obyektini tor ma’noda tushunish an’anasi mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

“Frazeologik obyektning noaniqligi, belgili bir chegaraning yo‘qligi bu sohaning metodologik qonun-qoidalarini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Chunki har qanday fan o‘z o‘rganish obyektini belgilamasdan turib, metod asoslari haqida gap yuritishi mumkin emas”⁵. Tadqiqotchi olimlar yuzaga kelgan holatni frazeologizmlarning murakkab til hodisasi ekanligini va bu hodisaning o‘zaro zid hollari mavjudligiga yo‘yishadi. Bu esa frazeologik boylikni sistemalashtirish va nazariy-amaliy tadqiq etishni qiyinlashtiradi.

“V.V.Vinogradov frazeologizmlarning uch tipini ko‘rsatadi:

¹Очилов Э. Таржимашунослик терминларинингизоҳли луғати.–Т., 2014. – Б. 169.

²Мусаев Қ.Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Т., 2005. – Б. 185.

³ Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С.559.

⁴Ғаниева Ш. Фразеологизмларнинг турғун бирикмалар системасидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2013. №1. – Б. 90-94.

⁵ Адмони В.Г. Основы теории грамматики. – М., 1964. – С. 3.

1. Frazеologik chatishma (фразеологическоесращение) yoki idioma – bunda muayyan obraz gavdalanadigan, leksemalarning ekvivalenti sifatida qatnashadigan birliklarni nazarda tutadi;

2. Frazеologik butunlik (фразеологическоеединство) – bunda muayyan obraz gavdalandigan, yaxlit ma’no ifodalaydigan, leksik komponentlari ma’nolarining birlashuvidan kelib chiqadigan birliklarni tushunadi;

3. Frazеologik qo’shilma (фразеологическоесочетание) – bunda bir komponentning ko’chma ma’noga ega bo’lishi va bu komponent ma’lum bir qurshovdagina frazeologik ma’no kasb etishini ta’kidlaydi”¹. Sh. Rahmatullayev², M. Mirzaev³, A. Sodiqovalarning⁴ ishlarida ham frazeologizmlar V. V. Vinogradovniki kabi uchga ajratilishi kuzatiladi.

Y. D. Pinxasov ham o’z metodik qo’llanmasida o’zbek tili frazeologizmlarini tasnif qilishda V. V. Vinogradov tasnifini asos qilib olib, uni frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, frazeologik qo’shilmalarga bo’ladi⁵.

Har bir tilning lug’at fondida frazeologizmlar bo’ladi, ularni xalq tilida ibora deb ham ataydilar. Ibora lug’at birligi bo’lib, ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemadan (so’zlardan) tarkib topgan bo’ladi. Ibora tarkibidagi leksemalar so’z ma’nolarining oddiy yig’indisiga teng bo’lmaydi, balki, o’z leksik ma’nosidan uzoqlashgan bo’ladi. Ularda ko’pincha ma’no asosiy hisoblanadi. Frazеologizmlarning asosiy belgilaridan biri uning leksik-grammatik tarkibining barqarorligi va ko’chma ma’noda ishlatilishidir.

“Frazеologik birliklarni tarjima qilishning o’ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu xol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko’ndalang qilib qo’yadi”⁶. Demak, frazeologizmlar tarjimasida

¹ Маматова.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док-ри. дис. – Т., 1999. – Б. 21-22.

²Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Т., 1955. – Б. 28.

³Мирзаев М. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т., 1965. – Б. 44-45.

⁴Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. – Т., 1981. – Б. 108-110.

⁵ Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Т., 1957. – Б. 25.

⁶Мусаев Қ.Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Т., 2005. – Б. 183.

nafaqat uning mazmuni va shaklini tarjimada aks ettirish masalasiga, balki uning milliy jihatlarini saqlab qolish kabi nozik qirralarga e'tibor bermoq lozim.

G'.Salomovning fikriga ko'ra: "Tilning asl qaymog'i, uning o'ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko'rsatadigan, boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini tayinlashda muhim omil bo'lgan narsa – undagi maqol, matal, idioma, frazeologik birliklar va shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g'oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo'lmoqda"¹.

Asliyat tilidagi frazeologik birliklarni komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentda tarjima qilish jarayonida avvalo ikki xalqlarning o'xshash va farqli jihatlarini, qolaversa, taqqoslanilayotdan ikki til o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish joiz. "Tarjima tilida asliyat tilidagi frazeologik birlikka har jihatdan mos ekvivalent mavjud bo'lganida tarjimada birining o'rniga ikkinchisi qo'yiladi. Bu frazeologizmlarning to'la muvofiqligi bo'lib, ekvivalent vositasida tarjima qilish deb ataladi"².

Frazeologizmlarni har doim ham tarjimada aks ettirib bo'lmaydi, chunki asliyat tilidan farqli o'laroq tarjima tilida unga mos keladigan frazeologik birlik yoki ibora topilmasligi holati ham ba'zida yuz berib turadi. Bunday holatlarda mutarjim qiyin vaziyatdan chiqib ketishi uchun frazeologizmni so'zma-so'z, g'ijjaviy, izohlab, yangi so'z va so'z birikmasini yaratish hamda tasviriyl usulda tarjima qilishi mumkin. Shu tariqa u muallif uslubidan biroz cheklansada, uning fikrlarini to'la yetkazib berishga erisha oladi. Bu borada Q.Musayev: "Agar asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikda mujassamlashgan obraz hayotiy kuzatishlarga hamda barchaga ma'lum va mashhur tabiat hodisalariga asoslangan, shu bilan birga tarjima tili sohiblariga yaxshi tanish voqea-hodisalar zaminida vujudga kelgan bo'lsa-yu, ibora tarkibidagi unsurlar orasida mantiqiy bog'lanish

¹Саломов Ф. Рус тилидан мақол, маталва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. Ўқув қўлланма. – Т., 1961. – Б. 18.

² Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. –Т., 2014. – Б.107.

ko‘zga yaqqol tashlanib tursa, bunday frazeologik birliklarning hijjalab qilingan tarjimasi asliyatdagi birlik mazmuniy-uslubini va pragmatik vazifasini qayta yaratadi, o‘zbek tilida hosil qilingan so‘z birikmasi chetdan kiritilganday, til tizimi uchun begonaday tuyulmaydi”¹. Demak, tarjima orqali yaratilgan yangi ibora va frazeologik birliklar tarjimani buzmaydi va aksincha u orqali tarjima tilining frazeologik lug‘ati yanada boyishiga zamin yaratadi.

Frazeologik birliklarni tasviriyl usulda tarjima qilish har doim ham qo‘l kelavermasada, bazi hollarda undan foydalanish yaxshi samara ham berishi mumkin. Chunki bir tilda mavjud frazeologik birlik boshqa bir tilda mutlaqo mavjud bo‘lmasligi, yoki uni izohlab keluvchi tushunchalargina bo‘lishi mumkin. Lekin o‘quvchiga bu kabi tarjimada duch kelinadigan muammolarning qizig‘i yo‘q. Uni faqat asar mazmuni qiziqtiradi holos. Shunday ekan tarjima jarayonida duch kelingan frazeologik birlikning mos keladigan ekvivalenti bo‘lmasa yohud o‘xshash biroq, ma’no mazmunni yetkazib bera olmasa, tarjimon tasviriyl usuldan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Q.Musayev: “Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalenti, na muqobil varianti va na kalka yordamida o‘g‘irishning imkoni topiladi. Bunday hollarda ijodkor noiloj tarjima amaliyotining tasviriyl usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida birliklar ma’nolari erkin ma’nodagi so‘z yoki so‘z birikmalari vositasida tushuntirib qo‘ya qolinadi”² – deb takidlaydi.

Asl nusxa va tarjima hech qachon teng darajada turmaganidek, ulardagi ma’no-mazmunda ham ma’lum darajada farq hamisha topiladi. Frazeologizmlar tarjimasida bu narsa yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar tarjimasi nazariyl tarjimashunoslikning muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Frazeologik birliklar tarjimada qaysi usul ko‘proq samara berishi va tarjimonlarning qaysi bir usuldan ko‘proq foydalanishlari har doim ham muhokamali masala bo‘lib kelgan. Albatta imkon qadar asliyatdagi shakl va mazmunni tarjimada ham saqlab qolish tarjimon oldiga qo‘yilajak eng

¹Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Т., 2005. – Б. 201.

²Ўша китоб.– Б. 205.

katta talab, ammo har doim ham buning ilojini topish mushkildir. Mukammal tarjimaga to'sqinlik qiladigan tillar aro grammatik tafovutlar, soxta ekvivalent so'zlar, qolaversa xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, tafakkuri, mafkurasi, olamni idrok etishi va farqlari har doim tarjimon ishni og'irlashtiradi.

2. “Nirmala” asaridagi frazeologizmlarni bilvosita tarjimasida o'girilish muammolari

Ma'lumki, tarjimon oldida qo'yilgan eng katta vazifa bu asliyat mazmun va shaklini o'z tarjimasida imkon qadar to'la to'kis yetkazib berishdan iboratdir. Tarjima qanchalar asliyat bilan mos kelsa, shunchalar uning saviyasi yuqori sanaladi. “Asliyat va tarjima mazmuni orasidagi real munosabatlarni qaror toptirish tarjimonga ikki matn o'rtasiga umumiylik chizig'ini tortishga, maksimal darajada turli tildagi matnlarning ma'noviy yaqinligini ta'minlashga imkon beradi. Shu orqali tarjima sifatiga erishiladi. Tarjima matnining asliyatga nisbatan har jabhada yaqinlikka erishishi *ekvivalent tarjima* deyiladi”¹.

Frazeologik birliklarni o'girish esa tarjimondan yanada ko'proq mehnat va e'tiborni talab etadi. Bir tilda mavjud bo'lgan frazeologik birlik ikkinchi tilda ham huddi shu shakl va mazmunda qo'llanilishi mumkin, lekin uni tarjimon bilmasa yoki frazeologik birlikka har jihatdan o'xshash bo'lgan birikma mavjud bo'lib, mutarjim uning o'rniga oddiy jumladan foydalanib, o'girishni ma'qul ko'rsa, bu bilan muallif uslubiga putur yetishi ehtimoli kuchli bo'ladi. “Tarjima qilinishi mushkul til birliklari shkalasida salkam birinchi o'rinda turuvchi til birliklari bu – frazeologizmlar hisoblanadi”². “Nirmala” romanining bilvosita tarjimasini asliyat bilan qiyoslash jarayonida ham frazeologizmlar tarjimasiga alohida to'xtalib, aksar hollarda frazeologik birliklar o'z o'rnini va ta'sir doirasida saqlanib qolganligiga amin bo'lindi.

O'zbek tilida “biron narsani bajarishga astoydil kirishgan inson so'zida qattiq turishini bildirish” ma'nosida *qasam ichmoq, ont ichmoq, va'da bermoq*

¹ Сирожиддинов Ш. Одилова Г. Бадий таржима асослари. Монография. – Т., 2011. – Б. 17.

² Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 1980. – С. 179.

kabi frazeologizmlarkeng qo‘llaniladi. Quyidagi parchada mazkur iboraning tarjima jarayonida o‘rinli qo‘llanilganini kuzatish mumkin:

Hindiy

tilida: अगर तुम मेरे पैरों पर गिर कर **कसम खाओ** कि अब किसी को सजान करूँगा, तो छोड़ दूँ। बोलो, मंजूर है¹।

Rustilida: Только если ты встанешь на колени **и поклянешься**, что больше никого не будешь упрятывать в тюрьму, тогда я тебя помилую. Говори, согласен²?

Bilvositarjimada: Агар борди-ю, тиз чўкиб, бундан буён ҳеч кимни турмага қаматмайман, деб **қасам ичсанг**, гуноҳингни кечираман. Қани қайси бирига юрасан³!

Asliyatdagi “**कसम खाओ**” iborasiso‘zma-so‘zo‘girilsa, “*qasamichmoq*, va ‘*daqilmoq*’⁴ma’nosini anglatadivabufrazeologik birlikkao‘zбекtilidagi “*qasamichmoq*” iborasiaynanekvivalentbo‘ladi. O‘zbektilifrazeologiklug‘atlarda*qasamichmoq*iborasiga “o‘zfikr-qarorinimaqullashmaqсадida, qadrlinarsanitilgaolibqat’iyyo‘sindama’lumqilmoq”⁵ta’rifberilgan. Demak, tarjimon frazeologik birlikni to‘g‘ri o‘g‘irgan, shu bilan birga frazeologizm shakli ham saqlanib qolgan.

“Asardagi mazmun va shaklning bir-biriga mosligi yozuvchi mahoratining dalilidir”⁶. Asar badiiyligini muhim shartlaridan biri mazmun va shaklning uyg‘unligidir. Asarning badiiyligini taminlab beruvchi omillardan biri g‘oya shaklga mos kelishidir. Muallif tomonidan har bir sahna, xarakter, epizod va detal aniq va mufassal tasvirlansa, asarning hamma qismlari va tafsilotlari bir-birini

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नईदिल्ली। भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 14.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 418.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 18.

⁴Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 343.

⁵РаҳматуллаевШ. Ўзбекилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 345.

⁶Султон И. Адабиёт назарияси. – Т., 1980. – Б. 234-235.

izchillik bilan to'ldirib, yagona g'oyani ochib berish uchun xizmat qilsa, badiiy yaxlitlik vujudga keladi.

Dunyoda onaning o'z farzandiga bo'lgan muhabbatidanda kuchliroq muhabbat bo'lmasa kerak. Bolasi uchun honu-moni tugul jonini ham fido qiladi ona. O'zbek tilida "*jonidan ortiq ko'rmog'*" frazeologik birligi juda qattiq qadrlab, bor mehrini berish ma'nosida qo'llaniladi. Qiyoslang:

Hindiy tilida: जिन बच्चों पर वह *प्राण देती थी*, अब उनकी *सूरत से चिढ़ती* इन्हीं के कारण मुझे अपने स्वामी से रार मोल लेनी पड़ी। ये मेरे शत्रु हैं¹।

Rustilida: Теперь даже дети, которых она *любила больше жизни*, *вызывали у нее раздражение*: ведь она поссорилась с мужем из-за них! Это они во всем виноваты²!

Bilvositarjimada: Эндигонидан *ортиқ кўрган* болалари ҳам унинг *жигига тегадиган* бўлиб қолди: ахир эри билан шу болаларини деб уришиб қолган эди-да! Ҳамма айб мана шу болалар-да³!

"*प्राणदेतीथी*" iborasining lug'aviy ma'nosi "o'zini fido qilmoq, jonini bermog'"⁴bo'lib, o'zbek tilidagi "*jonidan ortiq ko'rmog'*" iborasi bilan o'girilgan. Bu iboraning "*yuksak darajada qadrlab, suyib mehr-oqibat ko'rsatmog'*"⁵ kabi lug'aviy ma'nolari keltirilgan. Bilvosita tarjimada inson qalb kechinmalarini ifodalovchi frazeologik birlikni asliyatga yaqinlashtirib tarjima qilish o'ziga yarasha murakkab jarayon. Inson o'zi uchun juda yaqin bo'lgan kishilariga nisbatan his qiladigan tuyg'ulari ichida eng oliy tuyg'u muhabbat hisoblaniladi. Uning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, bular vatanga, ota-onaga, birodarlariga, do'stiga, sevgan insoniga, lekin ular ichida eng kuchlisi bu onaning farzandiga bo'lgan muhabbatidir.

Kitobxon romandagi mana shu jumlani o'qiganida ona o'z farzandini yomon ko'rishi mumkinmi deb savol berishi mumkin, aslida esa bu yerda ham ikki xil

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. - प. 15.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. - М., 1958. - С. 419.

³Премчанд. Нирмола. - Т., 1967. - Б. 19.

⁴Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. - М., 1972. - С. 149.

⁵Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳлифразеологик луғати. -Т., 1992.- Б. 97.

ma'no yashingan bo'lib, muallif avvalo onaning farzandlari uchun jonini ham ayamasaligini keltirib undan so'ng ularni yomon ko'rishini yozgan, bu bilan muallif onaning qattiq g'azabdaligidan shunday holatda ekanligini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Tarjimon ham o'z oldiga qo'yilgan vazifani to'la bajarib, gap tagidagi asl ma'noni ilg'ab, “सूरतसेचिदती” jumlasini “*жизуга мегадуган*” deb o'girib, muallif maqsadini to'liq o'giran. Shu o'rinda yana bir narsani alohida takidlab o'tish lozimki, rus tilidagi tarjima hindiy tilidagi “प्राणदेतीथी” iborasini “*любила больше жизни*” deb o'girishi asliyatga nisbatanekvivalentdir va bu o'zbek tilidagi tarjimada ham o'z aksini topgan.

“Tarjimani mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo'ladi. Chunonchi, bir zaminda o'sib turgan nihol boshqa yerda o'tkazilganda ko'karib, meva beradi. Jahon adabiyoti durdonalari ham tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga ko'chirilganda, o'sha tilning egasi bo'lgan xalqning milliy ongini o'stirishda, yangicha did paydo qilishda, dunyoqarashini tarbiyalashda faol rol o'ynaydi”¹.

Har bir xalq milliy lug'at boyligida “qon” leksikasi qatnashgan iboralar mavjud. Masalan, o'zbek tilida “qon dushman, qoniga tashna, ko'zi qonga to'lmoq, qoni qaynamoq va h.k.”, rus tilida “кровьиграет, кровьзастыла, кровьсмолоком, рукивкровии т.д.”, hindiy tilida “खूनउबलना-qoni qaynamoq, g'azablanmoq, खूनउतरना-ko'zi qonga to'lmoq, खूनकाप्यासा-qonxo'r, vaxshiy”² kabilar. “*Qon to'kilmoq*” iborasi ham shu jumladan bo'lib, *begunoh insonning o'limi, gunohga botgan joyda begunoh qon to'kilishiga nisbatan qo'llanilishi* bilan birga quyidagi misolimizda ham o'z o'rnida qo'llanilganini guvohi bo'lamiz:

¹Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T., 2016. – B. 101.

²Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 430.

Hindiylilida: धीरे अन्दर के महीने एक धीरे-सभी भांजेभतीजे- विदा हो गए।

जिनका दावा था कि हम पानी की जगह खून बहानेवाले में हैं कि भागे सरपट ऐसा वे ,
देखा न भी फिरकर पीछे¹।

Rustilida: За какой-нибудь месяц один за другим
разъехались *свсеродственники*. Они бежали без оглядки, лицемерно заявляя,
что не могут оставаться там, где *пролилась кровь*².

Bilvosita tarjimada: Бир ойга қолмасдан *қариндош-уруғлари* ҳам
тилёғламалик қилиб *қон тўқилган жойда* туриб бўлмайдди деб бирин-кетин
жўнаб қолишди³.

Asliyatda keltirilgan “*भांजेभतीजे*” so‘z bikmasining lug‘aviy ma’nosi “*jiyan*
(*opa-singil farzandi*)- *jiyan* (*aka-ukaning farzandi*)”⁴ bo‘lib, o‘zbek tilida aka-uka
va opa-singillarning barcha farzandlari birgina “*jiyan*” deb nomlanadi, lekin hind
xalqida aksincha bo‘lib har bir qarindosh tomon farzandlarining o‘z atalish nomi
mavjud. Bizda “bu jiyanim-akamning o‘g‘li” deb izoh bilan aytilsa, ularda birgina
“*भतीजा*” deyilishi bilan hammasi tushuntirilgan bo‘ladi. Mutarjim tarjima
jarayonida *jiyan* so‘zining o‘rniga “*қариндош-уруғлар*” birikmasidan foydalanib
birikmani mavhum hamda umumiyashtirib yuborgan bo‘lib, buning asosiy
sababi, rus tilida “*родственники*” so‘zining qo‘llanilganidir.
“*पानीकीजगहखूनबहाना*” frazeologizmining so‘zma-so‘z tarjimasi “*suv joyi qon*
to‘kilmoq”, ya’ni “*suvdek toza, muqaddas joyda begunoh inson qoni to‘kildi*”
mazmuniga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga “*қон тўқилган*” shaklida o‘tgan va iboraning
ta’sir va mazmun qatlamini ma’lum darajada o‘rnini bosgan. Chunki o‘zbek tili
frazeologik lug‘atida “*qon to‘kilmoq*” iborasi urush, janjalda qurbon bo‘lmoq,
yarador bo‘lmoq va qoni to‘kilmoq⁵ ma’nolari keltirilgan. Demak, tarjimon to‘la

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नईदिल्ली। भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 15.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 419.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 19.

⁴Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – М., 1972. – С. 290.

⁵РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклугати. –Т., 1992.– Б. 351.

bo‘lmasada, muqobil variantni topa olgan. “Tarjimada asliyatda qo‘llanilgan frazeologik birlik ma’no va uslubiy vazifasini matn tahlili asosida muayyan qilib, tarjimada unga pragmatik mos lisoniy vosita tanlash ikki til birliklarining kommunikativ monandligini vujudga keltiradi”¹.

“Bunday qaraganda tarjimon hal qilib bo‘lmaydigan muammolar qarshisida turadi: a) u ijodkor, lekin o‘zganing ijodi bilan ish ko‘radi; b) vatan adabiyoti ravnaqi yo‘lida zahmat chekadi, ayni vaqtda originalning milliyligini saqlashi lozim; v) u o‘tmish obidasini zamonaga xizmat qildiradi, shu bilan birga, kitobxonga o‘tmish to‘g‘risida tasavvur berishi talab qilinadi”². Mazkur kontekstda “istalmagan inson yoki mehmonga nisbatan qayerga xohlasa ketaversin”³ ma’nosini ifodalovchi “अपनीराहले” iborasi qo‘llanilgan. Tarjimada ham uning o‘zbek tilidagi “*тўрт томони қибла, кетаверсин*” iborasi bilan o‘g‘irilgan:

Hindiy tilida: अगर रहे,
तो साफ कह देना कि हमारे यहाँ मिठाई मुफ्त नहीं आती। खिचड़ी बनाना हो बनावे,
नहीं तो **अपनीराहले**!⁴

Rustilida: А если он задержится, скажи прямо, что у нас сладости не даровые. Кхиचри, если захочет, мы ему сделаем, а не захочет – пусть **отправляется на все четыре стороны**⁵.

Bilvosita tarjima: Яна қолиш нияти бўлса, бизникида текин ширинлик йўқ, деб очиғини айтаверинг. Хўп деса, кичири пишириб беришимиз мумкин, бўлмаса – **тўрт томони қибла, кетаверсин**⁶.

Vositachi til orqali qilingan tarjima aksar hollarda oraliqdagi tarjimada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘ziga ko‘chiradi, lekin yuqoridagi kontekstda rus tilidagi tarjima yutug‘i o‘zbek tilida ham aks etgan. “अपनीराहले” iborasini rus

¹Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик – Т., 2005. – Б. 184.

²Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Т., 2016. – В. 77.

³Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – М., 1972. – С. 467.

⁴प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 25.

⁵Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 432.

⁶Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 34.

tilida “*отправляется на все четыре стороны*” deb o‘girilib, bunda ibora shakli saqlanmagan bo‘lsada, mazmuni to‘la ifodalangan. Hindiy tilidagi “*अपनी राह लेना*” frazeologizmi so‘zma-so‘z tarjimasida “o‘z yo‘lini olmoq, o‘z yo‘lidan ketmoq” bo‘lib, kontekstdan kelib chiqib, “*тўрт томони қибла, кетаверсин*” iborasi uning muqobili bo‘la oladi. Chunki, o‘zbek tilida ushbu iboraga “qayoqqa xohlasa ketaversin”¹ izoh berilgan bo‘lib, uning “*Katta ko‘cha, qorasini o‘chirmoq*” kabi sinonimlari ham muomilada qo‘llanilsada, yuqoridagi kontekstning ma‘noviy shirasini aynan “*to‘rt tomoni qibla*” iborasi bilan to‘ldirish mumkin. Demak, mutarjim aslyatga yaqin bo‘lgan iboradan to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydalangan hamda muallif uslubi va maqsadini vositachi til orqali bo‘lsada, anglay olgan. Bu esa, badiiy tarjimada mutarjim oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu borada Fyodorov A.V. “Badiiy asar tarjimasida kasbiy-mexanik emas, balki ijodiy amalni, ya‘ni so‘z musavvirining ishtirokini talab qiluvchi masaladir”² – deb takidlaydi.

Har bir millat o‘z dini va diniy an‘analariga egadir. Badiiy asarlarda ham ular ma‘lum darajada o‘z aksini topadi. Asar qahramonlari o‘z ichki kechinmalarini ifodalashda “*xudoga shukur, yaratganga shukur, xudo xohlasa, xudoni aytgani bo‘ladi, xudoni bergani, xudo ko‘rsatmasin*” kabi iboralar keng qo‘llaniladi. Kimdir biron nohaqlikka uchraganida o‘z faryodlari bilan birga “*xudodan topsin, xudo jazosini beradi, xudoga soldim, xudo ursin*” kabi iboralardan ham foydalanadi. Asarda ham qahramonlar nutqida bu kabi iboralarning qo‘llanilishi asar saviyasini va ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Quyidagi parchada “*xudoga soldim*” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, u “kimni yoki nimani nomaqbul ishi uchun xudoning o‘zi ajrimini berishi”³ni ifodalash uchun qo‘llanilgan:

¹РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклугати. –Т., 1992.– Б. 273.

² Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1983. – С. 295.

³РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклугати. –Т., 1992.– Б. 287.

यहनजानतेथेकियहाँमेरेभोजनकेभीलालेपड़ेंगे। *भगवानआपकाभलाकरे!*¹

Rustilida: *Ведь не к чужим ехал!*...И мысли не допускал, что здесь мне придется самому заботиться о пропитании. *Ну, да бог с вами*².

Bilvosita tarjima: Сизни *еттиёт бегона* деб ҳам билмагандим!.. Бу ерда ўз овқатимни ўзим топиб ерман деб ҳаёлимга ҳам келтирмаган эдим. *Майли, худоба солдим*³!

Hindiy tilida “*भगवानआपकाभलाकरे*” iborasi soʻzma-soʻz “*xudo sizni yaxshi, sahiy qilsin*” maʼnosini anglatadi. Lekin umumiy yaxlit “*xudo sizga bas kelmasa, bandasini qoʻldan kelmaydi, yaratgan sizni toʻgʻri yoʻlga solsin*”⁴ kabi mazmunga ega boʻlib, kontekstdan kelib chiqqan tarjimon “*xudoga soldim*” iborasidan foydalanishi muallif maqsadidan cheklanganligini koʻrsatadi. Chunki muallif bu parchada aynan mezbonlardan hafsalasi pir boʻlgan, xafa boʻlib uyidan chiqib ketayotgan pandit mezbonlarni qargʻashiga haqqi yoʻqligi, ammo shuncha voqeadan soʻng hech narsa demay chiqib ketishi ham toʻgʻri boʻlmasligini nazarda tutgan boʻlsa, tarjimon keltirgan ibora maʼlum darajada qargʻash maʼnosini ham ifodalashi mumkin. Bevosita tarjimada ushbu iborani “*Худо ўзу сизларни паноҳида аспасин*” deb oʻgʻirilishi esa, asliyat mazmuni bilan mos ekanligi tarjimon asliyat bilan yuzma-yuz ish olib borganda tarjimaning saviyasi yanada ortishini yana bir karra isbotlaydi.

“Tarjimonning vazifasi – boshqa til vositalari orqali asliyatning stilistik va eksprassiv xususiyatlarini saqlagan holda uning mazmunini aniq va butunligicha tiklashdir. “Tarjima butunligi” deganda, yangi til zamirida mazmun va shakl birligining saqlanganligini tushunish kerak”⁵– deydi Ya.U.Retsker.

¹प्रेमचंद। निर्मला।– नईदिल्ली। भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 26.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 433.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 35.

⁴Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – М., 1972. – С. 294.

⁵Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М., 1974.– С. 7.

Bundan tashqari ushbu parchada “*आपकानामसुनकरआयेथे*” jumlasini soʻzma-soʻz “*sizning nomingizni eshitib kelgan edim*” boʻlsa, uning asl tag maʼnosi esa, “*sizni oʻzimga yaqin olib kelgan edim*” boʻladi. Tarjimon bu yerda muallif maqsadini toʻgʻri anglagan va asliyat mazmunini tarjimada ham saqlab qolib, “*сузни еттиёт бегона деб ҳам билмагандим*” deb oʻgʻirgan. Bunday vaziyatlarda rus tilidagi vositachi tarjimaning yuqori saviyadaligini yana bir bor tan olish lozim, zero bazida shoʻrvaning shoʻrvasida ham mazzali tam saqlanib qoladi. “Badiiy asar shakl va mazmuni dialektik birligining tarjimada qayta yaratilishi – adekvatlikka erishishning asosiy sharti. Mazmunni birinchi oʻringa qoʻyib, shaklga eʼtiborsizlik qilish, yoki aksincha monand shakl yaratish maqsadida mazmunda chalkashlikka yoʻl qoʻyish asar tarjimasida tushunarsizliklarni keltirib chiqaradi”¹.

Ayollar qismati, tubsiz jarlik kabi oʻz domiga tortib keta oladigan turmush tashvishlari har bir romanda alohida oʻringa ega. Azal-azaldan ota-bobolarimiz “peshonaga yozilgani boʻladi, taqdirdan qochib qutilib boʻlmaydi” kabi hikmatli soʻzlarni aytib keladi. Qiz bola palohmon toshi, qayerga otilsa, oʻsha yerga tushadi va qoladi – deydilar momolarimiz. Romanining bosh qahramoni Nirmala ham bamisoli ana shu palahmon toshi kabidir:

Hindiy tilida: *अपनेनसीबेंकोरोती। जरासाघीदालमेंअधिकपड़जाता, तोसारे घरमेंशोरमचजाता। जराखानाज्यादापकजातातोसास दुनियासिरपरउठालेती।*²

Rustilida: Да она *прокляла бы свою судьбу*: чуть перелила масла в бобы – *скандал на весь дом*, приготовила еды чуть побольше, чем нужно, - свекровь *готова со свету сжить*³.

Bilvosita tarjimada: *Пешонам шўр экан, деб лаънатлар ўқирди*: ловияга сал ёғни кўпроқ солиб юборса, бутун *уйни бошларига кўтариб* аюҳаннос

¹ Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш: Филол. фан. ном... дисс. – Т., 2011. – Б. 89.

² प्रेमचंद। निर्मला। – नईदिल्ली। भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 28.

³ Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 435.

солишса, керагидан сал кўпроқ овқат пиришиб қўйган бўлса, қайнанаси *босиб янчиса*¹.

Yuqorida keltirilgan parchada “*अपनेनसीबेकोरोना*” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, “o‘z qismatidan yig‘lamoq, qismatidan nolimoq, hayotiga la‘nat o‘qimoq”² ma’nolarini anglatadi. Bu ibora tarjimada “*Пеионам шўр экан, деб лаънатлар ўқирди*” shaklida berilgan. Shaklan va mazmunan tarjimon asliyat mohiyatini saqlab qolishga erishgan. Chunki “*peshonasi sho‘r*” iborasiga o‘zbek frazeologik lug‘atlarida “*sho‘r peshona, kimningdir hayoti davomida xorlik-zorlik, azob, uqubatda, kamsitishlar eshitib o‘tishi*”³ ma’nosida qo‘llanilishi kabi izohlar keltirilgan.

“*घरमेंशोरमचजाना*” frazeologizmi “*uyda shovqin qilib, janjal qilmoq*” ma’nosini bildirib, rus tiliga “*скандал на весь дом*” shalkida, o‘zbek tiliga esa, “*уйни бошларига кўтариб*” frazeologik birligi bilan o‘girilgan. Bundan kelib chiqadiki, rus va o‘zbek tillarida mazkur iboraning ekvivalentlari mavjud va tarjimonlar bundan unumli foydalana olganlar. Hindiy tilidagi yana bir “*दुनियासिरपरउठालेती*” frazeologik birikmasi “*घरमेंशोरमचजाना*” bilan sinonim bo‘lib, “*dunyoni boshiga ko‘tarmoq*” ma’nosida keladi. Lekin o‘zbek tarjimon so‘nggi iborani biroz g‘aliz “*босиб янчиса*” shaklida o‘giran bo‘lib, buning asosiy sababi “*दुनियासिरपरउठालेती*” frazeologik birikmasi rus tilida “*готовасосветусжить*” deb tarjima qilinganligidadir. Demak, bu o‘zbek tarjimonining emas balki rus tarjimonlarining hatosi deb aytishimiz mumkin. Agar, ibora to‘g‘ri o‘girilganida o‘zbek tilida uning aynan ekvivalenti “*dunyoni boshiga ko‘tarmoq*” bor bo‘lib, “*biron arzimagan narsadan urush yoki janjal chiqarmoq*”⁴ mazmunini anglatadi. Mana shunday bir qarashda arzimas bo‘lgan kamchiliklar tufayli bilvosita tarjimalarda g‘alizliklar kelib chiqishi mumkin.

¹Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 38.

²Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – М., 1972. – С. 482.

³РахматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 221.

⁴Ўша китоб.– Б. 93.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, “chet el adabiyoti asarlarini o‘zbek tiliga bevosita asl nusxaning o‘zidan ya’ni xorijiy tillardan tarjima qilishga o‘ta boshlash tarjimachilik siyosatimizning hozirgi eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lmog‘i lozim. Zeroki, kitob bevosita tarjima qilinganda, avvalo bu ishga original tilini biladigan mutaxassis jalb qilinadi – ehtimol tutilgan xato va kamchiliklarning ozgina bo‘lsa ham bir qatlami yo‘qotilgan bo‘lar edi”¹.

Tarjima tilida asliyatda qo‘llanilgan frazeologizmga ekvivalent bo‘lgan ibora yoki frazeologik birlik topilmagan hollarda, mutajim asliyatdagi ma’noni tarjimada sintaktik birliklar yordamida tasviriy usuldao‘giradi. Bu muallif uslubiga putur yetkazishi bilan birga ko‘p hollarda asar mazmuniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Lekin, tarjimon oldida shaklni saqlab qolish masalasi ham turgan bir paytda har bir o‘girilishi qiyin bo‘lgan jumlani tushurib qoldirilishi ham maqsadga muvofiq bo‘lmaganligi tufayli, tarjimon bilib turib bo‘lsa ham shu xatoga yo‘l qo‘yishga majbur bo‘ladi. Shuning ushun ham A.S.Pushkin “dunyodagi eng qiyin kasb bu tarjimonlik”²–deydi. Masalan:

Hindiy tilida: जहाँ आठों पहर कचहरी है। उड़ती खाक अब वहाँ ,थी रहती लगी सी- जब गया। उठा ही मेला वह **खिलानेवाला ही न रहा तो खानेवाले कैसे पड़े रहते?**

Rustilida: Дом, где всегда было полно народу, опустел, и шум сменился тишиной. **Не стало кормильца – разбежались и едоки**⁴.

Bilvositarjimada: Ҳамиша гавжум бўладиган бу хонадон файзсиз бўлиб қолди, шовқин-сурон ўрнини жимжитлик олди. Уйнинг **бошқарувчиси бўлмаганидан кейин, ҳеч ким кирмай ҳам қўйди**⁵.

Asliyatda qo‘llanilgan “**खिलानेवालाहीनरहातोखानेवालेकैसेपड़ेरहना**” iborasi so‘zma-so‘z “*boquvchisi bo‘lmasa, tekinxo‘rlar nimasiga ishsiz yotadilar*” ma’nosini anglatadi. Rus tiliga bu ibora “*Не стало кормильца – разбежались и едоки*” ekvivalenti orqali o‘girilgan va ma’no-mazmun bilan

¹Саидов С. Давр такозоси // Таржима санъати. – Т., 1976. – Б. 203.

²Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1983. – С. 186.

³प्रेमचंद। निर्मला।– नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 15.

⁴Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 419.

⁵Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 19.

birgalikda, yozuvchining maqsadi ham saqlanib qolingani. Lekin bilvosita tarjimada bu ibora “*бошқарувчиси бўлмаганидан кейин, ҳеч ким кирмай ҳам қўйди*” shaklida berilgan. Afsuski, bu holatda na mazmun va na shakl saqlangan. Qolaversa, “*boquvchi*” soʻzining oʻrniga “*boshqaruvchi*” soʻzining ishlatilishi kitobxonni chalgʻitadi. Ota oilani boshqarishi barobarida, uni moddiy tomondan taminlaydi. Lekin bilvosita tarjimada gap oila sardori haqida emas, balki, ishlarni boshqaruvchi xodim haqida ketayotgandek tasavvur uygʻotadi. Hind xalqining oʻrta qatlami madaniyatida oilani moddiy tomondan taminlovchi insonning oʻlimi butun oila halokatidan darak beradi. Ayni shu gapning bevosita tarjimasida esa, bu ibora nisbatan mazmuniga yaqinroq qilib: “*Боқувчиси бўлмагандан кейин боқиманда келиб ҳам нима қилади?*” shaklida oʻgirilishi, tarjimon muallifning maqsadini tushunganidan dalolat beradi. Demak, yuqorida aytganimizdek, bevosita tarjima doim asliyatga yaqin yuradi. Ushbu iborani “*Boquvchisiz qolgan xonadondan boqimandalar ham qochishdi*” deb oʻgirish ham mumkin.

Hindiy tilida “*oʻylaganini gapirmoq*” maʼnosida “*जोचाहेकहे*” iborasi qoʻllanilib, oʻzbek tilida bu iboraning “*ogʻziga kelganini gapirmoq, koʻnglidagi tilida*” kabi sinonimlari mavjud, lekin tarjimon:

Hindiy tilida :रंगीली-ऊँह, **जानेभीदो**/जबतुम्हेंवहाँविवाहहीनहीकरनाहै, तोक्यापरवाहहै? **जोचाहेकहे**¹

Rustilida:—*Да пускай он уходит*, чего ты волнуешься? Нам ведь свадьбу там все равно не устраивать! *Пусть думает что хочет и говорит что хочет*²!

Bilvositarjimada: —*Кетса кетавермайдами, шунга ҳам ота гўриқозихонами?* Барибир, у ерга бориб тўй қилиш ниятимиз йўқ-ку! *Нима ўйласа ўйлайверсин, нима деса деяверсин*³.

Bilvosita tarjimaning eng katta kamchiligi bu vositachi tarjimada yoʻl qoʻyilgan xatoliklarni oʻziga koʻchirishidir. Ushbu jumlada ham shu holat

¹प्रेमचंद।निर्मला।-नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 26.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 434.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 36.

takrorlangan bo‘lib, “जोचाहेकहे” iborasini rus tarjimoni “Пусть думает что хочет и говорит что хочет” deb iborani oddiy gap shaklida o‘g‘irgan. O‘zbek tiliga ham ibora “Нима ўйласа ўйлайверсин, нима деса деяверсин” ko‘rinishida o‘tgan. Natijada, asliyatdagi iboraning mazmuni saqlanib qolgan bo‘lsada, shakliga sezilarli darajada putur yetkazilgan.

Agar tarjimon asliyat bilan yuzma-yuz ish olib borganida, buning o‘rniga “og‘ziga kelganining gapirmoq” yoki “bilganini valdiramoq” shaklida o‘g‘irishi va bu bilan ham shakl ham mazmun yaxlitiliginini saqlab qolgan bo‘lardi. Huddi shunday “जानेभीदो” iborasining ham “ketsa undan nariga” varianti asliyat shakl-mazmunining o‘rnini to‘la bosa oladi. Lekin, mutarjim “Кемса кетавермайдуми, шунга ҳам ота гўри-қозихонами” deb o‘g‘irib iborani yoyib yuborgan. Qolaversa, ota go‘ri-qozixonami iborasi “janjallashib, hafalashib o‘tirishga arzimaydi”¹ ma’nosini anglatadi. Bu esa asliyatda nazarda tutilgan vaziyatga umuman mos kelmaydi.

“Ikki til obrazli yoki hissiy-ta’sirchan iboralarini, mazmuniy yaqinliklarini hisobga olib, tarjimada o‘zaro almashtiraverish pragmatik adekvatlikning ta’minlanmay qolishiga olib keladi. Iboralarning haqiqiy ma’no va uslubiy vazifalari chuqur matniy tahlil asosida oydinlashadi”². Demak, bilvosita tarjima nafaqat vositachi tarjima xatolarini o‘ziga ko‘chiradi, balki asliyat mazmunini anglashida ham kamchiliklarga yo‘l qo‘yishi ehtimoli oshadi. Huddi shunday holat keyingi misolimizda ham takrorlanadi:

Hindiy tilida: रुक्मिणी ने दौड़कर बच्चे को मुंशीजी को हाथ से छुड़ा लिया और बोली – बस रहने भी दो; क्या बच्चे को मार डालोगे? हायहाय-! **कान लाल हो गया।** सच कहा है , **नई बीवी पाकर आदमी अन्धा हो जाता है।** अभी से यह हाल है तो , **इस घर के भगवान ही मालिक हैं।**

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т., 1992. – Б. 202.

² Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик – Т.: Фан нашриёти, 2005. – Б. 185.

³ प्रेमचंद। निर्मला। – नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 34.

Rustilida: – Хватит, оставь его! Ты что, хочешь убить ребенка? Ай-ай-ай! Смотри, *как уши покраснели!* Видно, не зря говорят: кто второй раз женится – *сразу слепнет!* Если уже сейчас в *дометворится бог знает что, то что же будет потом!*¹

Bilvosita tarjimada: Бўлди, кўйвор уни! Нима болани ўлдирмоқчимисан? Вой-вой! Қара, *қулогининг ловлагиси чиқиб* кетибди! Иккинчи марта уйланган одамнинг *кўзи дарров кўр бўлади*, дейишлари рост гап экан! Ҳозирданки, бу уйда бундай машмашалар бошланди, *оҳири нима бўларкин?*²

Bunda hindiy tilidagi “कानलालहोना” jumlası rus tilida “*как уши покраснели*” deb ekvivalent tarzda va o‘zbek tiliga “*қулогининг ловлагиси чиқиб*” deb qisman bo‘rtirish shaklida o‘girilgan. “*अन्धाहोजाता*” iborasi esa, bu yerda ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, o‘zbek tilida ham shu shakl saqlanib qolgan va “*кўзи дарров кўр бўлади*” frazeologik birligi bilan o‘girilgan. Bu ibora “*biron narsa yoki hodisaga befarqlik va e’tiborsizlik*”³ ma’nosini ifodalaydi.

Demak, tarjimon muallif maqsadini to‘g‘ri anglagan. Lekin, gap so‘nggidagi “*भगवानहीमालिकहै*” frazeologizmi rus tiliga o‘girilgan bo‘lsada, o‘zbek tilida tushurib qoldirilgan va buning o‘rniga “*оҳири нима бўларкин*” jumlası qo‘llanilgan. Bizning nazarimizda hindiy tilidagi “*भगवानहीमालिकहै*” frazeologizmini “*xudo biladi, xudoning qo‘lida*” shaklida o‘girilshi mumkinva bu bilan muallif uslubi hamda asarning yana bir nozik jumlası ham to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lardi.

O‘zbek frazeologik lug‘atida ko‘ngil, qalb, yurak bilan bog‘liq juda ko‘p hissiy-tasviriy iboralar mavjud. Masalan, “ko‘nglini olmoq, ko‘ngil qo‘ymoq, yurak oldirmoq, ko‘nglini ochmoq” kabi iboralar inson ichki kechinmalarini ifodalashda qo‘llaniladi.

¹ Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 444.

²Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 49.

³ РаҳматуллаевШ. Ўзбекилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 78.

Hind xalqida ham bu kabi frazeologizmlar: “मनअटकना (ko‘ngil qo‘ymoq), मनडोलना (yuragi o‘ynamoq), मनपरचढ़ना (yuragini qozonmoq, ko‘nglini olmoq), मनफेरना (ko‘ngli sovimoq), मनमिलना (ko‘ngliga o‘tirmoq)”¹ keng qo‘llaniladi. Lekin ularni tarjimada berishda ba’zi g‘alizliklarga ham yo‘l qo‘yilishi kuzatildi. Qiyoslang:

Hindiy tilida: छड़ी सँभालकर बोले-**अभी शायदमन नहीं भरा**। अब की सात साल को जाओगे²।

Rustilida: Неужели ты еще **не набрался ума**? Ведь на этот раз получишь не меньше семи лет³.

Bilvositarjimada: Нима бало, **ҳали ҳаммулла бўлмабсан-да**? Лекин бу гал қўлга тушсанг камида етти йил оласан-а⁴!

Asliyatda “*bironnarsadanko ‘nglito ‘lmaslik*” ma’nosini ifodalab keladigan “**मननहींभरना**” frazeologizmi qo‘llanilgan bo‘lib,

rustiligabirozasliyatdanche kingan holda “**не набрался ума**” shaklidatarjima qilingan.

Vositachitarjimaga ergashgano‘zbek tilidagitarjimada esa, shaklvamazmundan mutlaqo cheklanib, “**ҳали ҳам мулла бўлмабсан-да**” jumlasibilano‘girilgan. Demak, har ikkala tarjimalarda g‘alizlikka yo‘l qo‘yilgan. Bilvosita tarjima hamisha vositachi tarjima izmida bo‘ladi, unda yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘chirib, undanda ko‘proq xatolar bilan bezalsa-bezaladiyu, lekin uning chizgan chizig‘dan chiqib keta olmaydi. Yuqoridagi keltirilgan misolimizda ham shu holat o‘z aksini topgan.

¹सुश्रीनजीदानज़रबायेवा।हिंदीऔरउज़बेककेअंगिकमुहावरोंकातुलनात्मकअध्ययन।लघुशोधप्रबंध।आगरा।:

केन्द्रीयहिन्दीसंस्थान,1994.-प. 32.

²प्रेमचंद।निर्मला।- नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. - प. 14.

³Премчанд. Рассказы. Нирмала. - М., 1958. - С. 417.

⁴Премчанд. Нирмола. - Т., 1967. - Б. 18.

O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida¹ “*ҳалиҳаммуллабўлмабсан-да*” iborasi keltirilmagan bo'lsada, uni “*kimningdir aqli-hushini yig'ib olmaganligi*” yoki “*qilgan ishlaridan pushaymon bo'lmagan*” hollarida qo'llanilishi ma'lum. Lekin ushbu gapning tarjimada uning qo'llanilishi, asar mazmuniga to'g'ri kelmagan.

Fikrimizcha, uning o'rniga vositachi tarjimaga suyanagan holda, “*aqling kirmadimi yoki tovbanga tayanmadingmi*” iboralaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir asar tarjimasida tarjimon yangi-yangi frazeologizmlarga duch keladi, agar ularning ekvivalenti o'zbek tilida topilmagan taqdirda ham ularni kalka qilib tarjima qilish mumkin. Bu esa, tilimizning yana bir yangi iboraga boyishi ehtimolini kuchaytiradi.

Bu borada K.Chukovskiy: “Tarjimada tilimizga hos bo'lmagan har bir iborani saqlab qolishimiz kerakki, bundan asarning yaxlitligini saqlagan holda o'zga tafakkur tomonidan yaratilgan, o'zga material asosida bunyod etilgani yanadan kuchliroq his qilinsin”². Demak, aslyatda keltirilgan har bir frazeologizm, har bir ibora va jumlaning tarjimada saqlab qolish tarjimonning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

3.“Nirmala” romanining bevosita tarjimasida frazeologizmlarning aks etishi

Bevosita tarjima imkoniyatlaridan to'g'ri va o'rinli foydalanish yaxshi samara berishi, tarjimonning bilim darajasining kuchliligi hamda ichki hissiy bilish qobiliyatini o'z o'rnida qo'llay bilishi tarjimani ham aslyatdan kam bo'lmagan nodir durdona asarga aylantira oladi. Premchand o'z asarlarida iboralardan keng foydalanishi uning asarlarining mazmunini yanada oydinlashtiradi. Bevosita tarjimada bilvosita tarjimaga qaraganda frazeologizmlarni tarjima qilish birmuncha ossonlashishi kuzatiladi. “Tarjima jarayoni muallifning asarda nimani aks ettirganini faol tasavvur qilishdan

¹Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луг'ати. –Т., 1992.

² Чуковский К. Высокое искусство. –М., 1968. – С. 185.

boshlanadi. Tarjimonning tafakkurida namoyon bo'luvchi bu tasavvurda faqatgina asliyatda nima deyilgani, ya'ni mazmuni emas, qanday aytilgani va shakli ham ishtirok etadi. Bularning barchasi bir organik butunlikda bo'lib, mana shunday butunlikda tarjimon tafakkurida ham aks etadi"¹.

Inson tana a'zolari ichida sezgi organlarining ahamiyati kattadir. Bular orasida ko'z alohida o'rin egallaydi. Aynan ko'z bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar ham son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Hindiy tilida ham “**आँख**”leksemasi asosiga qurilgan iboralar ko'p qo'llaniladi, masalan, “**आँखकातारा**-ko'zning oqi-qorasi, **आँखझालना**-ko'z tashlamoq, **आँखखिलना**-ko'zlari o'ynamoq, **आँखखुलना**-ko'zlari ochilmoq, **आँखझपकना**-ko'z qismoq, **आँखलझाना**-ko'z urishtirmoq”² kabilar.

Hindiy tilida: निर्मला ने कहा– आज इतनी देर कहाँ लगायी? दिन भर राह **देखते हैं जाती फूट आँखें देखते**।

Bevosita tarjimada: – Бугун жуда кеч келдингизми? – сўради Нирмала. – Кун бўйи йўлингизга **кўз тикавериб, кўзларим тўрт бўлди**⁴.

Asliyatda keltirilgan “**देखते-देखते**” so'z birikmasi “qarab-qarab” ma'nosini anglatadi, bevosita tarjimada esa mutarjim ushbu jumlani “*ko'z tikmoq- (kimnidir kutish, kelishiga intizor bo'lish)*”⁵ iborasi bilan almashtirgan holda, asliyatdagi “**आँखेंफूटजाती**” iborasi so'zma-so'z “*ko'zi oqmoq, ko'zi parchalanmoq*”⁶ bo'lishiga qaramay, ma'no jihatdan “**कूँज़लरुम तूँरुत बूँलदु**”⁷ varianti bilan tarjima qilinishi esa gapning ma'no bo'yoqdorligini yanada oshirgan. Qolaversa,

¹ Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М., 1972. – С. 126.

²सुश्रीनजीदानज़रबायेवा।हिंदीऔरउज़बेककेअंगिकमुहावरोंकातुलनात्मकअध्ययन।लघुशोधप्रबंध।आगरा।: केन्द्रीयहिन्दीसंस्थान,1994. –प. 16-19.

³प्रेमचंद।निर्मला।– नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 41.

⁴Премчанд. Нирмала. Жахон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 20.

⁵РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 140.

⁶Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – М., 1972. – С. 184.

⁷РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 142.

gapning grammatik tuzilishi ham saqlanib qolingan. Shunday misollarda yana biri:

Hindiy tilida: निर्मला – दीदीजी, तुम्हारे चरणों को छू कर कहती हूँ, मुझे कुछ नहीं मालूम। मेरी आँखें फूट जायँ, अगर मैंने उसके विषय में मुँह तक खोला हो।¹

Bevosita tarjimada: – Опажон, *ҳоки пойингизни олай*, мен хеч нарса билмайман! – астойдил ўтинди Нирмала. – Агар бу борада бировга бирон нарса деган бўлсам, *кўзларим оқиб тушсин*².

Hindiy tilida “*चरणों को छू कर कहना*” iborasi “*chuqur izzat va hurmatni*” ifodalab, hind xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlardan biri ya’ni “*o‘zidan katta bo‘lgan insonga nisbatan qo‘lini oyog‘iga tekkazib ta‘zim qilish*” ma’nosini bildiradi. O‘zbek xalqi odatlariga ko‘ra bunday shakldagi o‘z hurmatni ifodalash odati mavjud emasligiga qaramay, tarjimon bu holatni juda chiroyli “*ҳоки пойингизни олай*” shaklida o‘girib, shakl va mazmunni to‘laligicha saqlab qolgan. Qolaversa, ushbu hurmatni ifodalovchi odat o‘zbek xalqiga begona ekanligi ham sezdirilmagan. “*आँखें फूट जायँ*” iborasini esa aynan ekvivalenti “*кўзларим оқиб тушсин*” bilan o‘zgartirilgani tarjimon mahoratidan dalolat beradi. Zero, aslyatda Nirmala boshqalar oldida o‘zining begunoh ekanligini isbotlash uchun hatto jonini ham hayotini ham o‘rtaga qo‘yayotgani nazarda tutilgan bo‘lsa, “*кўзларим оқиб тушмоқ*” iborasi ham “*biror narsada qa’tiy fikrda bo‘lgan odam aksini yuz berish ehtimoliga nisbatan qo‘llaydigan*”³ frazeologizmi hisoblanadi.

“Aslyat va tarjima mazmuni orasidagi real munosabatlarni qaror toptirish tarjimonga ikki matn o‘rtasiga umumiylik chizig‘ini tortishga, maksimal darajada turli tildagi matnlarning ma’noviy yaqinligini ta’minlashga imkon beradi. Shu orqali tarjima sifatiga erishiladi. Tarjima matnining aslyatga nisbatan har jabhada yaqinlikka erishishi *ekvivalent tarjima* deyiladi⁴”. Tarjima jarayonida

¹प्रेमचंद। निर्मला। – नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 45.

²Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнаси. – Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 22.

³Раҳматуллаев Ш. Ўзбекилинингизоҳлифразеологиклуғати. – Т., 1992. – Б. 138.

⁴Сирожиiddинов Ш. Одилова Г. Бадиий таржима асослари. Монография. – Т., 2011. – Б. 17.

ekvivalentlikka erishishning har doim imkonni topib bo‘lmaganidek, bazi bir jumladlarda nafaqat frazeologizmni o‘g‘irish masalasi, balki xissiy kechinmalarni ifodalovchi “*oqlash, kechirish, rag‘batlantirish yoki kesatish*” kabi tuyg‘ularni tarjimada berish masalasi ham juda nozik bo‘lgan tarjima masalalaridan biridir:

Hindiy tilida: रुक्मिणी-तुम्हारी नई अम्माँजी की कृपा होगी, और क्या ?

मंसाराम-

नहीं बुआजी,

मुझे उन पर संदेह नहीं है। वह बेचारी तो भूल से भी कभी नहीं कहती। कोई चीज माँगने जाता हूँ, तो तुरंत उठकर देती हैं¹।

Bevosita tarjimada: – Янги ойингнинг “*шарофати*”дан бу, бошқа нима бўларди? - аламидан лаб тишлади Рукминий.

– Йўқ, аммажон, – эътироз билдирди Мансарам. – Менинг ойимдан *зигирча шубҳам* йўқ. У бечоранинг оғзидан бундай гаплар ҳеч қачон чиқмайди. Бир нарса сўрасам, дарҳол тутди.²

Asliyatda muallif tomonidan nohaq hodisani kesatish ma’nosida “*कृपा होगी*” frazeologik birligini qo‘llagan bo‘lib, tarjimon ham ushbu jumlani kesatiq bilan ya’ni “*шарофати*”дан so‘z birikmasi bilan tarjima qilib, gapning mazmuni to‘g‘ri talqin qilingan. Chunki “*कृपा होगी*” frazeologik birligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “*rahimdillik qilmoq, kechirimli bo‘lmoq*”³ ma’nolarini ifodalaydi, lekin parchada kesatish ma’nosida uni ko‘chma shaklida qo‘llanilgan. Agar tarjimon shu ma’nolarga mos keluvchi iboradan foydalanib, gapni o‘g‘irganida, asliyat mazmuniga putur yetkazishi mumkin edi. Shu bilan birga “*भूल से भी*” birligini “*зигирча шубҳа*” iborasi bilan o‘zgartirilishi ham muallif uslubi va g‘oyasiga yaqin bo‘lgan. Demak, tarjimon har ikki holatda ham asliyat mazmunini yetkazib bera olgan. Bevosita tarjimada muallif vatarjimon o‘rtasidagi masofa bilvosita tarjimaga qaraganda ancha qisqaradi hamda asliyatning o‘g‘irilishida ham sezilarli darajada yutuqlarga erishish uchun zamin yaratadi. Tarjima qanchalar asliyat

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 44.

²Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 22.

³Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 387.

bilan mos tushsa, shunchalar uning saviyasi yuqori sanaladi. Lekin, bazi hollarda tarjimon bilib turib, asliyatdagi frazeologik birlikka aynan soʻzma-soʻz tushadigan frazeologizm oʻrniga unga oʻxshash boshqa iborani qoʻllashiga toʻgʻri keladi. Mutarjimni bunga asliyatdagi mazmunni toʻgʻri va toʻliq berish talabi majbur qiladi. Chunki asliyatda qoʻllanilgan frazeologik birlik mazmun jihatidan tarjima tilida boshqa maʼnoda talqin qilinishi, yoki asliyatga nisbatan biroz boshqacha vaziyatda qoʻllanilishi holatlari ham uchrab turadi.

Hindiy tilida: उद्देश्य यही था कि इसे **दूध की मक्खी की तरह निकाल दिया जाय।** दो-या मरे चाहे फिर ,जाय दिया कर बन्द देना वर्च-खर्च बाद के महीने चार **जिए।** अगर मैं जानता कि यह प्रेरणा इनकी ओर से हुई कहीं तो ,**जगह न रहने पर भी** जगह निकाल लेता¹।

Bevosita tarjimada: Мақсад ягона: **кўзга тушган чўнниолиб ташлаш.** Уч-тўрт ойдан кейин ўқиш пули-нон пули бериш ҳам такка тўхтайди, кейин **ўламанми-қоламанми, у ёғи Худога ҳавола.** Агар бу гап аввал ўгай онамдан чиққанини билганимда **ернинг тагидан бўлса ҳам** битта жойни топган бўлардим².

Hindiy tilida “**दूधकीमक्खीकीतरहनिकालदेना**” frazeologik birligi soʻzma-soʻz “sutga tushgan pashshani olib tashlamoq”³ maʼnosini anglatib, oʻzbek tilidagi “oshga tushgan pashsha” iborasi bilan maʼno jihatidan mos keladi. “Oshga tushgan pashsha” iborasi “yaqin kishilar yoki tanishlar suhbatini nomaqbul kishining kelishi bilan boʻlinishi, buzilishi”⁴ kabi holatlarni ifodalashda qoʻllanilsa, mutarjim qoʻllagan “**кўзга тушган чўн**” iborasi “oʻzining shu yerda boʻlishi bilan norozilik, tashvish uygʻotish” vaziyatini ifodalashda foydalaniladi.

“**चाहेमरेयाजिए**” soʻz birikmasini ham tarjimon “**ўламанми-қоламанми, у ёғи Худога ҳавола**” shaklida oʻgirilib, asliyatga nisbatan biroz kengaytirilgan boʻlsada, qahramonning oʻz kelajagi haqidagi fikrlarini aniq ochib bergan. Huddi

¹प्रेमचंद।निर्मला।- नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 53.

²Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 30.

³Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 796.

⁴РаҳматуллаевШ. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклуғати. –Т., 1978.– Б. 206.

shunday “*जगहनरहनेपरभी*” so‘z birikmasi ham “*ернинг тағидан*(topish juda qiyin)*бўлса ҳам*”¹ frazeologik birikma shaklida tarjima qilingan. Bu kabi parchalarni asliyat saviyasiga putur yetkazmagan holda o‘zlashtirish asar ma’no bo‘yoqdorligi yanada oshiradi va tarjimon asliyat mazmunini to‘g‘ri talqin etganligini bildiradi. Yana bir shunday holat quyidagi parchada o‘z isbotini topgan bo‘lib:

Hindiytilida: **दोनों सूरतों में कितना अन्तर था। एक रत्न जटित विशाल भवन था, खंडहर फूटा-टूटा दूसरा**²।

Bevosita tarjimada: Иккала акс бир-биридан *осмон билан ерча фарқ қиларди*. Бири кошинкор қаср бўлса, иккинчиси кулбаи вайрона³.

Xalqimiz biron narsa yoki insonni boshqasi bilan qiyoslashda turli iboralardan foydalanadi. “*Osmon bilan yercha*” iborasi ham shu jumladan bo‘lib, “*juda katta, beqiyos (farq)*”⁴ ma’nosini ifodalaydi. Asliyatda “*कितनाअन्तर*” ya’ni “*qanchalar farq*”⁵ so‘z birikmasi shaklida ifodalangan bo‘lsada, o‘zbek tilining so‘z boyligidan foydalangan Amir Fayzullayev tarjimada ushbu so‘z birikmasini ibora shaklida o‘g‘irgan va bu qaysidir ma’noda tarjimonning o‘ziga xos uslubi hamdir. Fikrlarimiz tasdig‘i sifatida tarjimon Amir Fayzullayevning “*Tarjima olamining o‘zgacha jilolari*” nomli maqolaga bergan interyusida: “*Men tarjimada maqol va iboralar ishlatishni yaxshi ko‘raman. Chunki ularda hikmat ko‘p va badiiy asarga o‘zgacha bezak beradi. Ammo buni to‘g‘ri ham qo‘llay bilish kerak*”⁶ degan so‘zlarini keltirishimiz mumkin. Umumiy qilib olganda, tarjimada asliyat mazmuni va ma’no bo‘yoqdorligi saqlanib qolgan. Bazi bir qismlarida erkin tarjimaga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsada, asardagi voqealar zanjiridan chiqib ketilmagan hamda eng muhimi ushbu tarjimada hind xalqining madaniy muhiti kitobxonga yetkazilgan.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбекилинингизохлифразеологиклуғати. –Т., 1992.– Б. 88.

²प्रेमचंद। निर्मला।– नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 41.

³Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журналі. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 20.

⁴ РаҳматуллаевШ. Ўзбекилинингизохлифразеологиклуғати. –Т., 1978.– Б. 80.

⁵Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 33.

⁶ Ёрматова Г. Таржима оламининг ўзгача жилolari // Садо. –Т., 2017.– № 4. Б. 18.

II bob bo'yicha xulosalar

Tarjimada frazeologizmlarni o'girish jarayonida ularning o'zida xalqlar hayot tajribalari, mantiqiy mushohadalari, muayyan voqea-hodisaga munosabatlari asosida yaratilishi, milliy xususiyatlarni musajjam etishini hisobga olish lozim. Hech bir xalq boshqasi bilan solishtirgandan bir xil bo'lmaganidek ularning tilidagi frazeologik birliklar ham qo'llanilish jihati va ma'no doirasida

to‘laligicha bir xillikni kasb eta olmaydi. Demak, ularni tarjima qilishda ham shu jihatini inobatga olish lozim.

Frazelogizmlar tabiati jihatidan juda murakkab leksik birlik hisoblanib, “Nirmala” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida frazeologizmlarni tarjima qilishda aksar hollarda ekvivalent hamda muqobil usullardan foydalanilgan bo‘lsa, ba’zi bir iboralarni o‘g‘irishda tasviriy usuldan foydalanilganligi kuzatildi. Mutarjim muallif uslubidan biroz chekinsada, lekin asar mazmunini ochib berishda samarali ish tutilgan.

Hindiy tilidagi frazeologik birliklar nafaqat kontekstda ifodalanilayotgan tarkibiy qismiga emas, balki ma’nosiga ko‘proq ahamiyat bergan holda o‘g‘irish maqsadga muvofiq bo‘lishi aniqlandi. Ba’zi hollarda asarlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning ko‘p ma’noliligiga ahamiyat berish lozim. Albatta bunda tarjimonning til bilish mahorati iboraning to‘g‘ri tarjimasini belgilaydi.

Asliyatdagi frazeologizm o‘rniga tarjima tilida bir necha mos keladigan frazeologik birlik mavjud bo‘lganda, tarjimon nafaqat lisoniy birliklarning mos kelishi, balki mazmunning to‘la aks etishiga e’tibor berishi kerak. Buning uchun esa, tarjimon asliyat bilan yuzma yuz ish olib bormog‘i lozim. Bevosita tarjimaning katta imkoniyatlaridan bir bo‘lgan bu holatdan tarjimon unumli foydalanmog‘i lozim.

Bilvosita tarjima jarayonida frazeologik birliklarni tarjima qilish ikki barobariga qiyinlashadi, chunki bir ibora bir necha xalq so‘z boyligida mavjud bo‘lsada, ma’no, obyekt, qo‘llanilish jihatlaridan bir biridan farq qilishi mumkin. Bu esa, nafaqat mutarjimni chalg‘itishi balki, tarjimada g‘alizlik kelib chiqishiga ham sabab bo‘ladi.

“Nirmala” romaninng bevosita tarjimasi tahlili davomida mutarjim frazeologik birliklarni imkon qadar o‘g‘irish bilan birgalikda, asliyat matnini yanada o‘qishli va ma’no bo‘yoqdorligini oshirish maqsadida oddiy so‘z birikmalarini ham ibora shaklida tarjima qilganligi kuzatildi. Bu tarjimon asliyat

shaklidan biroz chekinligidan dalolat bersada, lekin umumiy mazmunni yanada oshganligini ko'rsatadi.

III BOB. PREMCHANDNING “निर्मला” ROMANINING BILVOSITA VA BEVOSITA TARJIMALARIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALARNI BERILISHI

1. “Nirmala” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarida

badiiy-tasviriy vositalarni ifodalanishi

Tarjima jarayonida hamda tarjimashunoslik sohasida muallif uslubini saqlash masalasi hozirgi kunda qadar o'z dolzabligini yo'qotmagan masalalardan biridir. Ma'lumki, har bir yozuvchining o'z uslubi bor. U o'ziga xos muayyan davrdagi uslubiy xususiyatlarni, milliy adabiyotining an'anaviy uslublarini hisobga olib, stilistik mahorati va o'ziga xos tili bilan asar yaratadi. Boshqa so'z bilan aytganda, har bir yozuvchining o'z "oltin qalami" bo'ladi.

Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida: "Uslub keng ma'noda – yozuvchi ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, tor ma'noda – ifoda usuli (tarzi bayon). Keng ma'noda uslub tushunchasi shoir (yoki yozuvchi)ning dunyoqarashi, asarlarining asosiy leytmotivini tashkil etuvchi g'oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarni qamrab oladi"¹—deb ta'rif berilgan bo'lsa, yana bir boshqa guruh olimlar uslubni "yozuvchining fe'l-atvori, o'zini tutish manerasi"² sifatida baholaydilar.

G'.Salomov esa uslub terminiga "Badiiy asarning umumiy jarangdorligi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, san'atkorning voqelikka bo'lgan munosabati va prinsiplari"³—deya ta'rif bergan va yuqoridagi tushunchalarni umumlashtirgan. Tarjima jarayonida mutarjim muallif uslubini qanchalar yaxshi tushunsa va idrok etsa, u qilgan tarjima ham shunchalar asliyatga yaqin bo'ladi. "Tarjimada aniqlikka erishish faqat yozuvchining individual uslubini aks ettirish orqali amalga oshadi. Uslubni berolmagan tarjimon aniqlikka da'vo qilolmaydi"⁴.

Q.Musayev: "Tarjima tilining sofliigi, uning yuqori madaniyati uchun kurash adekvat tarjimalar yaratish bobidagi jonbozlik bilan mantiqiy bog'liq bo'lib, barcha leksik va frazeologik birliklar hamda stilistik vositalarning originaldagi darajada tabiiy jaranglashi, birinchi navbatda, ularning o'z ma'no va funksiyalari hamda o'zlariga xos shakllarida ishlatishni taqazo etadi"⁵. Demak, tarjimon biron

¹Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Т., 1970.– Б. 232.

² Лихачев Д.С. Стиль как поведение // Современные проблемы литературоведения и языкознания. – М., 1974. – С. 101-199.

³Саломов Ф. Таржима ташвишлари // Таржима санъати. – Т., 1983. – Б.16.

⁴ Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари// Таржима санъати– Т., 1979. – Б. 113.

⁵Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. – Т.,1976. –Б. 13.

asarni o'g'irishdan avval, ushbu asar muallifining uslubini yaxshi anglab yetgan bo'lishi va yozuvchi uslubini o'ziniki bilan biriktirgan holda ish olib borishi lozim. Agar tarjimon yozuvchi uslubi bilan yaxshi tanish bo'lmasa, u holda u yaratgan tarjimalar muallif asarlarining tarjimalari emas, balki mutarjim yaratgan asarga aylanib qolish ehtimoli kuchli bo'ladi. Premchand asarlarida badiiy-tasviriy vositalarga tez-tez murojat qilishi esa, uning yozuvchilik uslubining naqadar serqirra ekanligini ko'rsatadi.

Taniqli hind yozuvchisi Premchand "Nirmala" romanida badiiy-tasviriy vosita va ifodalardan keng foydalanilgan bo'lib, asarning bilvosita va bevosita tarjimalarida ham muallif uslubini saqlab qolish va qayta yaratish maqsadida badiiy-tasviriy vositalar tarjimasiga alohida e'tibor qaratilgan. Har ikkala tarjimalarda muallif maqsadi imkon qadar yetkazib berilgan.

"Badiiy-tasviriy va ifoda vositalari – badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi. Badiiy-tasviriy va ifoda vositalardan foydalanishda muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab umumodatiy normadan og'ish natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning ta'sirli bo'lishiga xizmat qiladi"¹. Badiiy-tasviriy va ifoda vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Epitet, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, litota va o'xshatish.

Asarda biron narsa yoki holat haqida tasavvurga ega bo'lish, his qilish, eshitish va ko'rish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, so'z va iboralarning ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalanish usullari – ifodaviy vositalar sanaladi. "Asarning umumiy yangrashida undagi badiiy ifoda vositalarining hamjihatligi bilan belgilanadi"² – deb yozadi taniqli olim G.Gachechiladze. Demak, asliyatda keltirilgan badiiy-tasviriy vositalarni tarjimada ham o'z o'rnini va ma'no jilolarida saqlab qolinishi tarjimoni asliyatga yaqinlashtirish bilan birga, uning jarangdorlik darajasini ham oshiradi.

¹Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Академнашр. – Т., 2013. – Б. 49.

² Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М., 1972. – С. 174.

Tarjimashunoslik nuqtai nazardan olib qaraganga, tarjimaning asliyat bilan har jihatdan mos kelishi juda muhim omildir. “Nirmala” romanida ham muallif tomonidan juda chiroyli tasviriy ifoda va iboralar qoʻllanilgan:

Hindiy tilida: दूसरे दिन वकील साहब कचहरी से आये तो देखा, निर्मला की **सहाय्य मूर्ति** अपने कमरे के द्वार पर खड़ी है। यह **अनिदय छवि** देखकर उनकी **आँखें तृप्त** होगईं। आज बहुत दिनों के बाद उन्हें यह **कमल खिला दिखाई दिया**। कमरे में एक बड़ा-सा आईना दीवार से लटका हुआ था। वकील साहब ने कद मरखा, तो शीशे पर निगाह पड़ी। अपनी सूरत साथ-साथ दिखाई दी। उनके **हृदय में चोट-सील ग गई**। तोंदक सी होने पर भी **किसी मुँह जोर घोड़े की भाँति बाहर निकली हुई थी**।

Bilvosita tarjimada: Тотарам эртасига суддан кайтиб келгач, остона хатламасдан караса, Нирмаланинг чехрасида **табассум пайдо бўлганини, барқ уриб очилган хусни жамолини** кўриб маст бўлди. Ҳа, бу **нилуфар гунчасининг очиларкуни** бор экан-да! Хонада катта ойна деворга осиглиқ турарди. Тотарам хонага кириб ойнага қараганди, унда ўзини аниқ кўрди. **Юраги бир орзиқиб тушди**. Қорнини белбоғи билан қаттиқ боғлаб олганига қарамай, **худди қари қирчанги отнинг қорни сингари осилиб кетибди**².

Bevosita tarjimada: Эртасига мунший жий ишдан келиб караса, Нирмала ўз хонаси эшигида **хайкалдай қотиб турибди**. Бу кутилмаган ҳолатни кўриб, **кўзларига ишонмади**. Кўп кунлардан кейин бугун биринчи марта **нилуфар гулининг қийғос очилганини** кўришга муяссар бўлиб турарди. Хонадаги катта тошойна деворга осиб қўйилган. Мунший жий бир қадам босган эди, кўзи тошойнадаги ўзининг аксига тушди. **Юрагига санчиқ киргандай бўлди**. Қорни тортиб боғлангани билан **бир қисмидўмпайиб сезилиб турарди**³.

Hindiy tili singari oʻzbek tilida ham fikrlar uzun jumlar vositasida ifodalanish imkoniga ega. Agar tarjimon hindiy tilidagi murakkab jumlaning muallif

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 44.

²Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 58.

³Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журналы. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 19-20.

uslubiga muvofiq holda o'girmoqchi bo'lsa, jumlani shakl va mazmun birligida, hech bir so'zni "qurbon qilmasdan" tarjimada berishi, fikrni lisoniy-uslubiy vositalar yordamida o'girish imkoniyatidan erkin foydalanishi, o'z ona tilining rang-barang badiiy-tasviriy vositalarini samarali qo'llagan holda so'z va iboralar tanlashi lozim. Yuqoridagi parchada muallif kundalik hayotda uchraydigan oddiy holatni juda chiroyli va nozik qirralarini musavvir kabi qalamga olgan. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, uni o'qigan kitobxon vaziyatni aniq ko'z oldiga keltira oladi.

Badiiy-tasviriy vositalarning biri "epitet badiiy sifatlash bo'lib, narsa-hodisalarning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi. Agar oddiy aniqlovchi narsa-hodisani bir turdagi boshqa predmetlardan ajratsa, epitet unga xos muayyan belgini ajratib-takidlab ko'rsatadi"¹. Asliyatdagi "सहास्यमूर्ति" jumlasini bilvosita tarjimada muqobil shaklini keltirgan holda "табассум найдо бўлганини, барқ уриб очилганхусни жамолини" deb o'girilgan va bunda "очилганхусни жамол" epitetdir, lekin bevosita tarjimada so'zma-so'z tarjimaga yo'l qo'yilib, "хайкалдай қотиб турибди" jumlasini bilan berilgan. Buning o'rniga, nazarimizda "gulgun ochilib turibdi" yoki "yuzidan nur yog'ilib turibdi" iboralaridan foydalanilganida jumlaning mazmuni ochiqroq ifoda etilgan bo'lar edi. Ahir bu holatda Nirmalaning erini ochiq yuz bilan kutib olgani va bundan uning eri Totaramni hayron qolishi tarvirlangan. Hindiy tilidagi "यह अनिदय छवि देखकर उनकी आँखें तृप्त हो गईं" bevosita tarjimada muqobil tarzda "Бу кутилмаган ҳолатни кўриб, кўзларига ишонмади" deb o'girilgan bo'lsa, bilvosita tarjimada esa, o'zidan oldingi gapga qo'shib, "кўриб маст бўлди" shaklida berilgan. Demak, bilvosita tarjimada shaklga putur yetkazilgan, lekin bu bilan mazmunga dahil qilinmagan.

"Metafora – ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan biri, narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ko'chim turi, metafora mohiyatan yashirin o'xshatish bo'lib, unda o'xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda,

¹Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Академнашр. – Т., 2013. – Б. 369.

uning ma'nosini o'xshayotgan narsa (ya'ni uni ifodalayotgan so'z) bildiradi. Albatta, bu o'rinda o'xshatilayotgan narsa-hodisalarning aynan o'xshashligi talab qilinmaydi, balki ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi"¹. Asliyatdagi Nirmalaga nisbatan qo'llanilgan “कमलखिलादिखाईदिया” eng chiroyli metaforalardan biri bo'lib, unda nilufar guli obrazi orqali go'zal ayolni, uning ochilishi hodisasi bilan esa, husniga husn qo'shilganligini bildiradi. Ushbu metafora har ikkala tarjimada ham juda chiroyli tarzda o'girilgan bo'lib, bilvosita tarjimada “*нилуфар гулчасининг очиларкуни*” hamda bevosita tarjimada “*нилуфар гулининг қийғос очилганини*” deb tarjima qilingan. Qolaversa, umumiy gap ohangini ham asliyatniki kabi jarangdor ifodalanilishiga erishilgan.

Xuddi shunday, “हृदयमेंचोट-सीलगगई” iborasi ham bilvosita tarjima variantida “*Юраги бир орзиқиб туюди*” va bevosita tarjimada “*Юрагига санчиқ киргандай бўлди*” deb talqin qilinishi, asliyatdagi ushbu iboraning “*yuragiga zarba bo'lgandek bo'ldi*” ma'nosini to'liq bergan holda o'zbek frazeologizmlari hazinasidan mos keluvchi ibora va o'xshatishlar bilan o'girilgan. Lekin hindiy tilidagi kontekstda keltirilgan “*किसीमुँहजोरघोड़ेकीभाँति*” o'xshatishi bevosita tarjimada tushirib qoldirilgan bo'lib, uning o'rniga “*бир қисмидўмнайиб сезилиб*” oddiy jumla shaklida o'girilgan. Ammo, bilvosita tarjimada bu o'xshatishga muqobil keladigan “*худди қари қирчанғи отнинг қорни синғари*” varianti qo'llanilgan bo'lib, ma'no va mazmun aslidek berilishi bilan birgalikda, shakl ham saqlanib qolgan. Demak, ushbu keltirilgan parchada bilvosita tarjima orqali qilingan tarjima asarlari bevosita tarjimadan kam emasligi hamda u orqali qilgan tarjimalar ham asliyatga yaqin bo'lishi mumkin ekanligini isbotlaydi.

“Tarjima matnini yaratish bilan ijodiy jarayon nihoyasiga yetmaydi, matn–tarjima yaratish ishining intihosi maqsadiga kirmaydi. Tarjima ham, xuddi asl

¹Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Академнашр. – Т., 2013. – Б. 170-171.

nusxa singari, uni kitobxonlar o‘qigan taqdirdagina o‘zining ijtimoiy funksiyasini bajaradi”¹—deydi G‘.Salomov. Shu o‘rinda taniqli rus tarjimashunosi K.Chukovskiyning ham so‘zlarini eslash kerak bo‘ladi: “Badiiy tarjimadan asliyat muallifi yaratgan obrazlar va qo‘llagan ifodalarnigina emas, uning adabiy manerasi, ijodiy shaxsiyati, uslubi qayta yaratish ham talab etiladi. Garchi bu talab hal etilmas ekan, qilingan tarjima hech nimaga arzimaydi”². Demak, tarjimada har bir so‘zning o‘z o‘rni va maqsadi bo‘lmog‘i lozim. Asliyatdan farqli o‘laroq tarjima aniq bir qolipdan chetga chiqmasligi va asliyatni ham mazmun ham shakl jihatdan aynan takrorlashi lozim. Shu shart bajarilgan taqdirdagina tarjima mukammal va yakunlangan bo‘la oladi. So‘zlarimiz isboti sifatida yana bir misol:

Hindiy tilida: चौथे दिन संध्या समय वह **विपत्तिगई हो समाप्त कथा-**। उसी समय जब पशु शिकारियों भर-दिन भी पक्षी-प्राण का निर्मला ,थे रहे लौट को बसेरे अपने पक्षी-व्यथित और आहत से झोंकों प्रचंड के वायु और पंजों के चिड़ियों शिकारी ,निशानों के **अपने बसेरे की ओर उड़ गया** ।

Bilvosita tarjimada: Тўртинчи кун кечга бориб Нирмаланинг **зардоб тўла ҳаёти ниҳоясига етиб қолганди**. Ҳамма жонли махлуқлар инларига, уяларига қайтадиган кун қорайган пайтда Нирмаланинг жони, овчиларнинг ўқи тегиб жароҳатланган, овчи лочинлар чангалидан ва даҳшатли шамоллар зарбидан дабдала бўлган **жонибоқий дунёга қараб учиб кетди**⁴.

Bevosita tarjimada: Тўртинчи кун кечки пайтда **мусибат достони ўз ниҳоясига етди**. Барча ҳайвоноту паррандалар ўз масканларига қайтаётганда Нирмаланинг кун бўйи овчилар милтиғига чап бера-бера, йиртқич қушлар чангалидан қоча-қоча ва қаттиқ шамолу бўронлар шиддатини енга-енга ҳолдан тойган ва яраланган **жон қуши ҳам ўз ошиёни томон учиб кетди**⁵.

¹ Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – T., 2016. – B. 87.

² Чуковский К. Высокое искусство. – М., 1968. – С.6.

³प्रेमचंद।निर्मला।– नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 144.

⁴Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 200.

⁵Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 67.

Har bir asar o‘z o‘quvchisini topadi, lekin kimdir bu asarni qadirlaydi, kimdir esa yo‘q. Premchandning asarlarida hamisha hayot mashaqqatlari tasvirlanadi, lekin o‘limni ya‘ni asarning bosh qahramonining o‘limini tasvirlash oson vazifa emasdi. Yuqoridagi parchada Nirmalaning o‘limi muallif tomonidan juda g‘amgin hamda shu darajada hayotiy berilganki, uni tarjima qilishda ham shu jihatlarni ko‘chirib o‘tish talab etiladi, zero bu yakun, intihodir. “*विपत्ति-कथासमाप्तहोगई*” jumalasi so‘zma-so‘z “*bu baxtsiz qissa yakunlanib bormoqda*” ma‘nosini anglatib, bilvosita tarjimada “*зардоб тўла ҳаёти ниҳоясига етиб қолганди*” shaklida o‘girilishi hamda bevosita tarjimada “*мусибат достони ўз ниҳоясига етди*” deb berilishi, asliyat mazmuniga to‘laligicha muqobil keladi va hattoki bir muncha chiroyliroq hamda adabiy ifodalangan.

Lekin har ikkala tarjima variantlarini o‘zaro solishtirganda bevosita tarjima asliyatga ko‘proq yaqinligiga, har bir so‘z o‘z o‘rni va ma‘nosida o‘girilganiga amin bo‘lish mumkin. “Tarjimada ayrim olingan har bir holatda qanday so‘z yoki jumla joizligini “lug‘aviy ekvivalentlik” emas tabiiy muvofiqlik, ya‘ni tasvirlanayotgan xarakterning “mijozi”ga ma‘no, uslub, ohang tomondan kontekstual moslik hal qiladi”¹. Gap so‘nggidagi “*अपनेबसरेकीओरउड़गया*” jumlasini badiiy tasviriy vositalarning metonimiya guruhiga misol bo‘la olishini ko‘rishimiz mumkin. Metonimiya (yun. metonymia – qayta nomlash, boshqa narsa orqali atash) – ma‘no ko‘chishining keng tarqalgan turlaridan biri, ko‘chimning narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslanuvchi turi. Narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlik turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy (“stadion hayqirdi”, “butun shahar qatnashdi”), vaqt (“og‘ir kun”, “omadli yil”); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita (“achchiq til”); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi (“ko‘z yummoq”) va hokazolar orqali ifodalanadi². Ushbu jumlada ham ruhiy holat aks etilgan bo‘lib, insonning o‘limi, jon berishi tasvirlangan va bevosita

¹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Т., 1983. – Б.4.

² Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Академнашр. – Т., 2013. – Б. 172.

tarjima variantida asliyatga ekvivalent “*жон қуши ҳам ўз ошиси томон учиб кетди*” tarzda o‘girilgan. Har ikkala tarjimada asliyat mazmuni asosan bera olingan, tarjimonlar ishga ijodiy yondashishga harakat qilgan bo‘lsalarda, bevosita tarjima bilvosita tarjimaga qaraganda, asliyatga juda qayin ekanligi seziladi. Bu esa, Amir Fayzullayevning tarjimonlik mahorati hamda muallif maqsadini anglashdagi ichki intuitsiyasining kuchli ekanligidan dalolat beradi.

“Nirmala” romani tarjimalari bilan o‘zaro taqqoslash davomida bir necha o‘xshatishlar tarjimasi ham e’tiborimizni tortdi. O‘xshatishlar (metafora) o‘zida tilning mo‘jizaviy xususiyatlarini aks ettiruvchi va millatning xarakterini ochib beruvchi unsur, ular bugun yoki kecha paydo bo‘lgan hodisa emas, balki millat bilan, xalq bilan birga taraqqiy etgan, boyib borgan milliy boylikdir.

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkreteroq, bo‘rttiribroq ifodalash”¹ga aytiladi.

“O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini o‘zida mujassam etadi. Ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo‘ladi”². Shuning uchun ham o‘xshatish va qiyoslash dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab turli tadqiqotchilarning diqqat markazida nutq ta’sirchanligini ta’minlaydigan alohida vosita bo‘lib kelgan.

O‘xshatishlar ham adabiyotshunoslikda³, ham tilshunoslikda tasviriy vosita sifatida o‘rganib kelingan. “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” kitobida “o‘xshatish” haqida quyidagicha izoh keltirilgan: “O‘xshatish – narsa, hodisa yoki tushunchani ma’lum umumiylikka, o‘xshashlikka ega bo‘lgan boshqa narsaga, hodisa yoki tushuncha bilan yoki *-dek, (day), o‘xshash, xuddi, go‘yo, misli, singari, yanglig‘, simon* kabi so‘zlar yordami bilan tuziladi”⁴.

¹ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.,1983. –Б. 239.

² Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O‘quv qo‘llanma. –Т., 2015. – Б. 97.

³ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т., 1980. – Б. 218.

⁴ Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.,1970. – Б. 262.

A.N. Vselovskiy badiiy uslubning kelib chiqishi va taraqqiyoti nazariyasini ishlab chiqar ekan “poetik nutq shakllari” o‘xshatishning mohiyatini ham psixologik parallelizm formasiga mansub, deb topgan. Uning fikricha, parallelizm subyekt va obyektning harakatini solishtirish orqali qaror topgan. “Obyektlar tabiiyki, hayvonlar va o‘simliklar” edi. A.N.Vselovskiy¹ quyosh, shamol, chaqmoq, olov kabi harakat qiluvchi obyektlarni ham solishtirish ashyosi sifatida ko‘rsatadi.

V.A.Maslova o‘xshatishlarning antroposentrik jihatini alohida ta’kidlab, shunday yozadi: “O‘xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq bo‘lgan turli doiralarga mansub ekanligi o‘zida bir-birini taqozo etuvchi qo‘shimcha assotsiatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to‘laqonli bo‘lishini ta’minlashi bilan birga ta’sirchanlikni ham kuchaytiradi; o‘zaro o‘xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qancha uzoq bo‘lsa, ulardagi ekspressivligi shuncha yorqinlasha boradi. O‘xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko‘rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko‘pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi”². Olimaning ta’kidlashicha, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan, o‘sha xalq tilida qo‘llaniluvchi o‘xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hindiy tilida: उसकीदृष्टिएकभिखारिनपरलगीहुईथी,
जोअपनेबालककोगोदमेंलियेभिक्षामाँगरहीथी।बालकमाताकीगोदमेंबैठाहुआऐसाप्रसन्न
था, मानोवह **किसीराजसिंहासनपरबैठाहो**³।

Bilvosita tarjimada:Мансарам кўчада чақалоқ боласини кўкрагига босиб
тиланчилик қилиб турган бир гадой хотинга тикилиб ўтирганди. Бола
онасининг кўлида ўзини**худди тахтда ўтиргандай** бахтли сезарди⁴.

¹Ёкуббекова М. Ўзбек халқ ўланларида ўхшатиш. – Т., 2003. – Б. 10.

² Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. – С. 133-134.

³प्रेमचंद।निर्मला।– नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 49.

⁴Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 69.

Bevosita tarjimada: Унинг кўзлари боласини бағрига босганча садақа сўраётган тиланчи хотинда эди. Гўдаккина онасининг бағридалигидан шундай хурсанд эдики, *гўёСулаймон тахтида ўтиргандек*¹.

Tarjima jayaronida mutarjim asarni qayta yaratadi, qayta jon baxshida etadi. Bu jarayonda asliyat toblangan qilich kabi o'tkirlashishi yohud aksincha zang tortgan pichoq singari o'jizlashishi mumkin. Ba'zi hollarda esa, tarjimon asliyatni kitobxonga yanada badiiy qilib ko'rsatish maqsadida o'zi bilib, bilmagan holda tarjimada erkinlikka yo'l qo'yadi. Jumladagi “*किसीराजसिंहासनपरबैठना*” o'xshatishi bilvosita tarjimada aynan so'zma-so'z “*худди тахтда ўтиргандай*” o'xshatishi bilan o'girilgan. Lekin, bevosita tarjimada ushbu o'xshatish “*гўёСулаймон тахтида ўтиргандек*” deb berilib, “*Сулаймон*” so'zining qo'shilishi bilan erkin tarjimaga yo'l qo'yilgan. Zero, “Sulaymon qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri, Dovutning o'g'li, odil va dono hukmdor. Sulaymon nomi bilan bog'liq taxti Sulaymon birikmasi mumtoz adabiyotda an'anaviy tarzda qo'llanib kelgan. Zamonaviy shariyatda ham ushbu an'ana davom ettirilib, she'riy matnlarda muqaddas tushunchalar Sulaymon taxti bilan qiyoslangan. Bu esa badiiy mazmun ekspressivligi uchun xizmat qiladi”². Tarjimon bu bilan o'zbek kitobxonini mafkurasini ko'zlagan bo'lsada, hind xalqida “*Sulaymon taxti*” tushunchasi borligi muammoli holatdir. Yana bir misol:

Hindiy tilida: मसलनवहगलेमेंहारनपहनतीथी,
परआजवहभीगलेमेंशोभादेरहाथा।*झूमरसेभीउसेबहुतप्रेमनथा,*
परआजवहभीमहीनरेशमीसाड़ीकेनीचे,
काले-
*कालेकेशोकेरुपरफानूसकेदीपककीभाँतिचमकरहाथा*³।

¹Премчанд. Нирмала. Жахон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 26.

²Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. –Т., 2016. – Б.89.

³प्रेमचंद। निर्मला। – नईदिल्ली। भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 71.

Bilvosita tarjimada: У бу кун ясаниб олганди: илгари ҳеч тақмаган маржонларини бўйнига тақиб олган, ҳатто **жумор** тақишни ёқтирмаса ҳам, сал ялтироқ шойи сарисининг бир учи билан ўраб олган **қонқора мойдай сочларига** тақиб олган жумори қуёшда қолган **қимматбаҳо тошдайтовланибнур сочиб турарди**¹.

Bevosita tarjimada: Масалан, одатда, у маржон тақмасди, лекин бугун у ҳам кўксига зеб бериб турибди. **Шокилаларга** ҳам унчалик ҳуши йўқ эди, бироқ бугун улар ҳам нафис шойи сарий тагидан, **тимқора сочлари** устидан **ўн шамли чироқдай чарақлаб турибди**².

Hind ayollarining turli xil zebu ziynatlar taqib yurishi odat hisoblanib, ularning nomlanishi, maqsad-vazifasi va tuzilishi jihatdan ham o'zbek milliy zebu-ziynatlaridan farq qiladi. Garchi bu tadqiqotimizning asosiy mavzusi hisoblanmasada, parchada zikr etilgan “**झमर**” ham hind xalqining milliy taqinchoqlaridan bo'lib, “5) peshonasidan tushib turadigan qilib taqiladigan taqinchoq, zeb”³dir. Bilvosita tarjimada “**झमर**” so'zi transliteratsiya qilingan va bet so'nggida “ayollar boshiga taqadigan bezak” deya izoh berib o'tilgan. Lekin, bevosita tarjimada “**झमर**” so'zini tarjimon “**шокила**” so'zi bilan o'girgan. O'zbek tili izohli lug'atda “shokila” so'ziga “1) dasturxon, sochiq, darparda, ro'mol kabi buyumlarning chetiga-hoshiyasiga tikiladigan yoki shu gazmolning o'zidan titib chiqarib yasaladigan bezak. 2) Ba'zi buyumlarga bezak uchun osib qo'yiladigan shu shakldagi taqinchoqlar”⁴ kabi izohlar berilgan. Demak, tarjimon “**झमर**” so'zining tarjimasida noaniqlik bilan qaragan, buning o'rniga bilvosita tarjimada keltirilgani kabi so'zni transliteratsiya qilib olib va izoh berib o'tilganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, milliy zargarlik buyumlari va ularning nomlari ham milliy kolorit hisoblanib, tarjimada o'zgartirib o'girilishi muallif

¹Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 99.

²Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 45.

³Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – М., 1972. – С. 638.

⁴Мадвалиев А. таҳрири остида. Ўзбек тили изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т., 2006. – Б. 592.

uslubiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlardan biridir. Fikrimiz tasdig'ini V.Fyodorov keltirgan nazariy fikrlarda ko'ramiz: "Hech bir so'z yo'qki, uni boshqa tilga hech bo'lmasa, tasviriy yo'l bilan o'girib bo'lmasa... Tarjimada muvofiq variant yo'q bo'lgan holda, narsa yoki tushunchaning asliyat tiliga mos va xos leksik lo'ndaligini bo'rttirish uchun transliteratsiya qilish kerak"¹.

Ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanalgan, o'xshatishlar tarjimasiga qaytadigan bo'lsak, asliyatda keltirilgan "काले कालेकेशौ" jumlasini bilvosita tarjimada rus tilida berilgan variantni so'zma-so'z ko'chirgan holda "қонқора мойдай сочлар" deb o'girilgan. Bunda tarjimonning emas balki vositachi tarjimada yo'l qo'yilgan xatoning takrorlanishi kuzatiladi. Ammo bevosita tarjimada ushbu jumla tarjimasi juda chiroyli "тумқора сочлар" iborasi bilan o'girilgan va asliyat bilan ekvivalent bo'la oladi. "फानूसकेदीपककीभाँतिचमकरहाथा" jumlasidagi "फानूसकेदीपककीभाँति" o'xshatishi "fonusdan (chiroqdan) taralayotgan nur kabi" ma'nosini bildirib, har ikkala tarjimalarda o'z jozibasini saqlagan holda "қимматбаҳо мойдай" va "ўн шамли чироқдай" muqobil o'xshatishlarini qo'llagan holda o'girilgan. Lekin bevosita tarjima asliyatga nafaqat mazmunan balki shakl jihatdan yaqin kelganligi ushbu tarjima usulining samaraliroq ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Tarjima nazariyasidagi aksar konsepsiyalarda ta'kidlanishicha, "tarjima hamma vaqt shakl va mazmun uyg'un holda tiklashdek ijodiy jarayon bo'lib, u tarjimondan asliyatning mazmuniy va g'oyaviy birligini qayta yaratish bilan bir qatorda uning muvofiq shaklini tiklashni ham talab qiladi"².

O'xshatishlar tarjimasida nafaqat jumlaning shirasi balki, muallif ko'zlari bilan dunyoga nazar tashlash imkonini ham beradi. A.Rustamovning talqiniga ko'ra, "o'xshatishlar ijodkorning mahoratini, xususan, uning tasavvur va xayolot olamining boy yoki qashshoqligini ko'rsatib turadi. O'xshatishning vazifasi

¹ Федоров А.В. О художественном переводе. – М., 1941. – С. 152.

² Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш: Филол. фан. ном... дисс. – Т., 2011. – Б. 90.

tasvirlarning sifat va vazifasini ravshanlashtirish, o'tkirlashtirishdan va shu yo'l bilan o'quvchi yoki tinglovchining zavqini uyg'otish, hissiyotlarini qo'zg'ashdan iborat. O'xshatish shoirning hayajoni natijasida tasavvurida vujudga keladi ¹ degan xulosa beradi.

2. Premchandning “Nirmala” asari misolida bilvosita va bevosita tarjimalarida erishilgan yutuq va kamchiliklar

Tarjima asliyatga qanchalar yaqin bo'lmasin, baribir tarjima bo'lib qoladi. Hech bir tarjima asari o'z asliyatidan yuqori o'ringa qo'yilmaydi. Premchandning “Nirmala” romani dunyoning ko'plab tillariga o'girilgan va kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan mutolla qilib kelinmoqda. Tarjima variantlari bir biridan mukammal, mazmunli va asliyatga muqobil qilib o'girilgan. Quyida bir necha misollar orqali bevosita va bilvosita tarjima usullarining murakkabliklari va qulayliklarini tahlil etamiz:

Hindiy tilida: इतने में कहार ने एक टूटा चीड़ का सन्दूक लाकर रख दिया और बोला-कुर्सीमेज- हमारे उठाए नहीं उठत हैं²।

Rustilida: Появился кахар с *разбитым деревянным ящиком* в руках. – Мне одному *стул* не донести, - пробормотал он³.

Bilvosita tarjimada: Бир вақт қаҳҳор *синиқ бир яшиқни* кўтариб келди. – Бир ўзим *ўриндиқни* кўтариб келолмадим, - деб яна вайсади у⁴.

Bevosita tarjimada: Шу тоб қарол бир *абжағи чиққан эски сандиқни* олиб келиб меҳмонга қўйди ва деди: - *Оромкурси билан столни* кўтаришга кучимиз етмади⁵.

Asliyatdagi “*टूटा चीड़ का सन्दूक*” jumlasining so'zma-so'z ma'nosi “*siniq qarag'ayli sandiq*” bo'lib, har ikkala tarjimada uni nisbatan noto'g'ri o'girilganini

¹ Рустамов А. Алишер Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т., 1979. – Б. 98.

²प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 17.

³Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 421.

⁴Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 22.

⁵Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнаси. –Т., 2016 йил, январь сони. – Б. 111.

ko‘ramiz. Bilvosita tarjimada vositachi tarjimadagi kamchiliklarni takrorlagan holda “*синиқ бир яшиқ*”, bevosita tarjima variantida esa “*абжағи чиққан эски сандиқ*” deb o‘g‘irilgan. Rus tilida “*qarag‘ayli*” so‘zi umumiy ma‘no bildiradigan “*деревянным*” so‘zi bilan o‘zgartirilgan, “*sandiқ*” so‘zi esa “*яшиқ*” deb o‘g‘irilib, asliyatdan mutlaqo uzoqlashib qolgan. Bilvosita tarjimada ham xuddi shu kamchiliklar kuzatiladi. Bevosita tarjimada esa siniq so‘zini biroz bo‘rttirilgan, og‘zaki nutqda foydalaniladigan “*абжағи чиққан*” so‘zi bilan berilgan, sandiқ so‘zi esa o‘z holida qoldirilgan. Lekin har uchchala tarjimada ham qarag‘ay so‘zi tushirib qoldirilgan.

Jumla davomidagi “*कुरसी-मेज*” so‘zma-so‘z “*stul-stol*”, bo‘lib bu yerda muallif bir-ikkita “*kursi-o‘rindiқ*”ni nazarda tutgan. Rus tilida faqat birgina “*стул*”, bilvositada “*ўриндиқ*”, bevositada esa “*Оромкурси билан стол*” berilgan. Lekin agar kontekstdan kelib chiqadigan bo‘lsak “*stol*”ga ehtiyoj bo‘lmagan, tarjimon kontekstga unchalik e‘tibor bermagan. Demak, uni tarjimada berilishi ham o‘rinsiz. Buning o‘rniga “*oromkursi-o‘rindiқ*”dan foydalanganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Arzimas mayda-chuydadek bo‘lib tuyilgan narsalar ham tarjimada muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, masalan sandiқ bilan yashikni o‘rtasida anchagina farq bor. Mehmonni sandiқ ustiga o‘tkazish mumkindir, ammo yashikning ustiga o‘tkazish xunuk manzara hosil qilishi aniq. Bu bilan hind xalqida mehmonga bo‘lgan munosabat nisbatan sovuqdek tuyiladi. Vaholanki, ularda mehmon yetarlicha ezozlanadi. Bu misol orqali bilvosita tarjimaning qanchalar g‘aliz bo‘lishi mumkinligi isbotlaniladi. “Badiiy asarni tarjimada shirasiz va befayz qilib qo‘yish uchun ko‘plab qo‘pol lug‘aviy nuqsonlarga yo‘l qo‘yish shart emas, balki bir necha nozik lavhani chiqara olmaslik, nishonga uradigan bir-ikkita xarakterli detalni tashlab ketish bilan uni izdan chiqarish, asarning badiiy ta’sir quvvatini susaytirishi mumkin”¹. Kontekstdan kelib chiqib, asliyatdagi ma’noni berishga bir qadar harakat qilingan bo‘lsada, tarjimon muallif uslubiga putur yetkazgan.

¹Salomov G‘. Tarjimanazariyasigakirish. – T., 2016. – B. 42.

Hindiy

tilida: इधर महीनों से बाबू उदयभानु लाल निर्मला के विवाह की बात चीत कर रहे थे। आज उनकी मेहनत ठिकाने लगी है। बाबू भालचन्द्र सिन्हा के ज्येष्ठ पुत्र भुवनमोहन सिन्हा से **बात पक्की की गई है**।

Rustilida: В течение нескольких месяцев Удай Бханулал подыскивал Нирмале жениха, и наконец труды его увенчались успехом: он **договорился о свадьбе** Нирмалы и Бхуванмохана Синха, старшего сына Бхальчандра Синха².

Bilvositarjimada: Удай Бхонулол бир неча ойдан буён қизига муносиб куёв кидириб юриб, энди кўнгли таснин топганди: Нирмолани Бхолчандра Синхнинг ўғли Бхувонмохон Синхга **фотиҳа қилиб қўйишганди**³.

Bevositarjimada: Неча ойдирки, бобу Удай Бхуну Лаъл Нирмалани чиқариш тараддудида юрибди. Бугун барча ҳаракатлари ўз самарасини берди: бобу Бҳаълчандр Синханинг тўнғич ўғли Али Бҳуванмўҳан Синханинг **розилигини олиб, ишни пишитди**⁴.

Asliyatdagi “**बात पक्की की गई है**” jumlasining so‘zma-so‘z ma’nosi “ish (gap) pishirilgan” ya’nibironishyuzasidankelishibolishma’nosibildiradi. Rus tilidagi tarjimada “**договорился о свадьбе**” asliyatgamuqobilshaklidaberilgan. Lekin bilvosita tarjimada “**фотиҳа қилиб қўйишганди**” jumlasiasliyatdagima’noganisbatananchabo’rtirilgan. Shundaybo’lsadaba’zibiro’zbekviloyatlaridafotihaso’zio’rniga “**boshinibog’landi, ishpishitdi, gap bir joyga qo’yildi, uzatiladigan bo’ldi, birxulosagakelindi**” kabima’nodoshlari ham qo’llaniladi. Bevosita tarjima variantida esa “**розилигини олиб, ишни пишитди**” deb o’girilgan bo’lib, harjihatdanasliyatgayaqintarjimaamalgaoshirilgan.

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 5.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 407.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 5.

⁴Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, январь сони. – Б. 101.

Hindiylida: हलवाई – कुछ और लिजिए महाराज ,! थोड़ी सी-**रबड़ी** मेरी सरफ से

लिजिए¹।

Rustilida: Кушайте на здоровье, махарадж, - любезно потчевал его кондитер. – Попробуйте еще *сгущенного молока*²!

Bilvosita tarjimada: Еяверинг, ош бўлсин, махорожа, – деб таколлуф билан жавоб берарди қандолатпаз, – қани мана бу *нишолдадан* ҳам бир татиб кўрсинлар-чи³!

Bevosita tarjimada: Яна озгина олинг, таксир! – унга таколлуф қилди ҳолвачи.— Менинг томонимдан, озгина *рабарийдан* тотиб кўринг⁴.

Keyingi misolimizda, “*रबड़ी*” milliy xos soʻzning bilvosita tarjimada “*нишолда*” soʻzi bilan nomuqobil shaklda oʻgirilishini kuzatamiz. Ushbu shirinlik turi faqatgina Oʻrta Osiyo xalqlari taomnomasiga kirib, uni hind shirinliklaridan farq qiladi. Qolaversa, rus tilidagi “*сгущенного молока*”ga ham muqobil boʻla olmaydi, demak mutarjim asliyatni oʻzbek kitobxoni uchun qulaylashtirish maqsadida, asliyatning oʻziga xos koloritini yoʻqolishiga sababchi boʻlgan. Bilvosita tarjimadan farqli ravishda, bevosita tarjimada ushbu soʻz transliteratsiya qilinib, “*рабаруй*” shaklida berilgan va matn ostida “*Rabariy – saqichga oʻxshash chaynaydigan xushboʻy shirinlik*” izohi berib oʻtilgan. “Tarjimon asliyatga xos milliy turmush tarzi koloritini daxlsiz saqlagan holda, oʻz tilidagi badiiy vositalar bilan uning oʻziga xos stilistikasini yaratadi. Asarni silliq, uslubsiz, umumiy tilga tarjima qilinishi, matnning har qanday milliy belgilaridan mahrum boʻlishiga olib keladi”⁵. Bevosita tarjimaning bilvosita tarjimadan yana bir ustun jihati, milliy xos soʻz va tushunchalarni tarjimada aks ettirish imkoniyati keng ekanligidir.

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नई दिल्ली। भारतीय ग्रंथ निकेतन, 2011. – प. 24.

²Премчанд. Рассказы. Нирмала. – М., 1958. – С. 430.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 32.

⁴Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, январь сони. – Б. 118.

⁵Чуковский К. Высокое искусство. – М., 1968. – С.136.

Hindiy tilida: दस्तूरी में एक दिन तुम्हें उसके हाथ के बने हुए पान खिला देंगे।

Rustilida: А за это я тебя как-нибудь угощу бетелем, приготовленным молодой женой².

Bilvosita tarjimada: Ўша ёш хотин қўли билан тайёрланганбетел билан сийлайман ўзингни³.

Bevosita tarjimada: Бир кун шу келиним бор деб келсанг, бир пиёла чой қуйиб беришга ярар, ҳеч бўлмаса⁴.

Har bir xalqning mehmon kutish va unga nisbatan mulozamat ko'rsatishining o'z mezon-qoidalari mavjud bo'lib, badiiy asarda ham bu vaziyat o'z aksini topishi mumkin. Yuqoridagi keltirilgan asliyat parchasida hind xalqining ba'zi hududlarida ham uyga kelgan mehmonga ko'rsatiladigan mulozamat sifatida “*पान*” bilan siylanishi tasvirlangan. O'zbek xalqida uyiga kelgan mehmonga dasturxon yozilib, birinchi navbatda issiq choy uzatib, non ushatiladi. Bu mezbonning mehmonga nisbatan hurmatini ko'rsatadigan, ajoyib odatlaridan biridir. Tarjimon badiiy asar tarjimasida shu kabi har bir xalqning milliy an'analarini chuqur o'rgangan holda, tasvirlanayotgan holatni to'g'ri anglamog'i va tarjimada ham kerak bo'lgan qismlarida kitobxon tushunish doirasini anglagan holda asliyatdan chekinib bo'lsada, asarni o'zlashtirishiga to'g'ri keladi. Hamda shu bilan muallif uslubini ham saqlab qolishga intilish muhim ahamiyatga ega. Bilvosita tarjimada “*हाथकेबनेहुएपानखिलादेंगे*” jumlasida “*қўли билан тайёрланганбетел билан сийлайман*” deb o'girilgan bo'lib, o'zbek kitobxoni uchun “*betel*” nima ekanligi mavhum bo'lib qolgan. Tarjimada bu so'zga izoh ham berilmaganligi, tarjimonning o'zi ham bu nima ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lmagan degan xulosani keltirib chiqaradi. Bevosita tarjimada “*бир пиёла чой қуйиб беришга*” shaklida o'girilishi esa, asliyat

¹प्रेमचंद। निर्मला।- नईदिल्ली।भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 37.

²Премчанд. Рассказы, Нирмала. – М., 1958. – С. 447.

³Премчанд. Нирмола. – Т., 1967. – Б. 52.

⁴Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Т., 2016 йил, февраль сони. – Б. 129.

shaklidan cheklangan bo‘lsada, “*हाथकेबनेहुएपानखिलादेंगे*” jumlasida yotgan asl ma’noni yetkazib bergan.

“Asarga qanday shart-sharoitlar yuzasidan yondashuvimiz, unda nimani ko‘rishni yoxud qanday narsani topishni maqsad qilib qo‘ygan holda yaqinlashuvimizga qarab, asarning mohiyati har xil bo‘lib gavdalanadi. Asarning o‘tkir joylarini u yoki bu daraja intuitsiya bilan ajratadigan oddiy kitobxondan farq qilaroq, tarjimon interpretatsiyaviy mavqeini yaxshi o‘ylab turib belgilaydi, bunda u o‘z tarjimasi bilan kitobxonga nima demoqchiligini bilib turib ish ko‘radi”¹. Demak, bazi hollarda asliyat matnining asl mohiyatini, mazmunini yoritib berish uchun tarjimada bu kabi nozik o‘zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Bevosita tarjimada mutarjim asliyat shaklini saqlab qolishi va satr ostida izoh berib o‘tish bilan kifoyalanishi mumkin edi, biroq bu bilan asliyat mazmuniga shikast yetkazishini to‘g‘ri anglagan holda jumlaning yuqoridagi shaklda o‘girishni ma’qul ko‘rgan.

“Nirmala” romanining bilvosita va bevosita tarjimalarini asliyat matni bilan qiyoslash orqali bilvosita tarjimaning bir necha yutuq va kamchiliklari mavjudligi aniqlandi:

1) bilvosita tarjima nashr etilgan zamon va sharoitda kitobxonlarga manzur bo‘lgan hamda vositachi til orqali bo‘lsada, hind madaniyatining go‘zal qirralarini ma’lum darajada saqlab qolingani;

2) XX asrda badiiy asarlarni hindiy tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qila oladigan tarjimonlar yetishmagan bo‘lsada, hind adabiyoti bilan rus tili orqali tanishish imkoniyati ochib berilgan;

3) asarning tarjimasida badiiy tasviriy vosita va o‘xshatishlar asliyatga juda yaqin shakl-mazmunda o‘girilgan;

4) tarjimada voqealar davomiyligi to‘g‘ri saqlangan va asliyatdagi biron bir satr tarjimada tushirib qoldirilmagan.

¹ Левый И. Искусство перевода. – М., 1968. – С. 49-77.

Kuzatilgan kamchiliklar: 1) vositachi tilda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va yo‘qotishlar bilvosita tarjimaga ham ko‘chib o‘tgan;

2) bilvosita tarjimada asliyatning shakl va mazmuni haqida to‘laonli ma’lumotga ega bo‘lish imkoni qisqaradi;

3) bilvosita tarjimada muallif uslubining saqlab qolish imkoni kamayadi, shu bilan birgalikda vositachi tarjima mutarjimining uslubi bilvosita tarjima mutarjimini chalg‘itishi holatlari mavjud;

4) tarjima asari o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlari va birliklarini ma’lum darajada o‘ziga singdirishi hisobga olinsa, bilvosita tarjimada asliyat tilining emas, vositachi til xususiyatlarining o‘tishi kuzatildi;

5) tarjimon uchun muallif uslubini belgilovchi vositalar, jumladan, frazeologizm, o‘xshatish va milliy xos so‘zlar tarjimasida ikkilanish hamda xatoliklarga yo‘l qo‘yish kuzatildi.

“Nirmala” romanining bevosita tarjimada erishilgan yutuqlar:

1) tarjimada frazeologizm, o‘xshatish va milliy xos so‘zlar, badiiy-tasviriy vosita va ifodalar tarjimasida asliyatga muqobil variantlar tanlangan va o‘z o‘rnida qo‘llanilgan;

2) asarning shakli va yozilish janriga alohida e’tibor qaratilgan;

3) muallifning asl g‘oya va qarashlari, mafkurasi, ichki kechinmalarining asarga ta’siri tarjimon tomonidan ilg‘ab olingan hamda imkon qadar tarjimada o‘z aksini topgan.

Har bir tarjimada kuzatilgani kabi bevosita tarjimada ham kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi kuzatildi, bulardan:

1) “Nirmala” romanining bevosita tarjimasida tarjimon tomonidan ba’zi jumlalarning tarjima qilinmay tushirib qoldirilganligi hamda “Jahon adabiyoti” jurnalida romanning jurnal variantida bir necha boblarning tushirib qoldirilishi kuzatildi;

2) roman tarjimasida tarjimon tomonidan erkin tarjimaga yo‘l qo‘yilgan qismlari kuzatildi, yuqoridagi boblarimizda ham bu holat tahlil qilindi;

3) tarjimada ba'zi milliy xos so'zlarni asliyatdan uzoq so'zlar bilan yoki umumiy shaklda o'girilishiga duch kelindi: पूरी-shirinlik, मूँगकेलडू-yeryong'oqli bo'g'irsoq, पूड़ी-teshikkulcha, बाटीऔरदाल-chavatini zirvagi, दोफुलका-ikki burda non va h.k.

III bob bo'yicha xulosalar

Har bir ijodkorning o'z individual uslubini aniqlash ayni paytda uning badiiy mahoratini o'rganish imkoniyatini beradi. Yozuvchi individual uslubi orqali kitobxonning didini, demak, dunyoqarashini o'stirishga xizmat qiladigan badiiy

obraz vositasida hayotiy voqelikni tasvirlaydi. Yozuvchining badiiy mahorati kitobxon didini o‘stirish barobarida uzluksiz takomillashtirib boradi.

Tarjimon biron asarni o‘g‘irishdan avval, ushbu asar muallifining uslubini yaxshi anglab yetgan bo‘lishi va yozuvchi uslubini o‘ziniki bilan biriktirgan holda ish olib borishi lozim. Bu esa, asliyatda qo‘llanilgan badiiy-tasviriy vositalarning tarjimasida duch kelinadigan muammolarni hal qilish imkonini beradi. Tarjimada har bir so‘zning o‘z o‘rni va maqsadi bor. Asliyatdan farqli o‘laroq tarjima aniq bir qolipdan chetga chiqmasligi va asliyatni ham mazmun ham shakl jihatdan aynan takrorlashi lozim. Shu shart bajarilgan taqdirdagina tarjima mukammal va yakunlangan bo‘la oladi.

Badiiy-tasviriy vositalarni tarjimada aks ettirishda har ikkala tarjima mutarjimlari tomonidan qo‘llanilgan usullar qiyoslandi va quyidagi xulosaga kelindi:

- 1) Tasviriy vositalarni aynan, o‘zgartirmasdan aks ettirish;
- 2) Asliyatga muqobil bo‘lgan, yangi variant qo‘llab, mazmun-ma’noni aks ettirish;
- 3) Tasviriy vositani qisqartirib ketish, natijada asar badiiyligiga putur yetkazish;
- 4) Qo‘shimcha badiiy-tasviriy vosita qo‘llash;
- 5) Asardagi tasviriy bo‘yoqlarni quyuqlashtirish, matnni kengaytirib, “yorqinroq”, “badiyroq” qilib berish;
- 6) Bir jumlada qator kelgan tashbehlarning bir qismini qoldirib yoki boshqa vositalar bilan kompensatsiya qilib o‘g‘irish;
- 7) Bir tasviriy vositani boshqa tasviriy vosita bilan ifodalash.

XULOSA

Premchandning “Nirmala” romani misolida bilvosita va bevosita tarjimaning yutuq va kamchiliklarini ishimiz vazifalaridan kelib chiqqan holda tahlil etib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bilvosita yoki bevosita tarjima usulidan foydalanayotgan tarjimon asliyat tilini bilmasada, mazkur asar muallifi, uning uslubi va asarlaridagi ko'tarilgan dolzarb masalalar, muallif yashab, ijod qilgan zamon va makon muhiti, tarixi, xalqining madaniyati, mafkurasi, urf-odatlar bilan tanishib chiqmog'i lozim. Bu tarjimon uchun asarning asl mohiyati va g'oyasini anglashga zamin yaratadi.

2. Bilvosita tarjima usulidan foydalangan o'zbek tarjimoni asl nusxa tilidan mutlaqo ajralib, vositachi tilning ifoda shakllariga bo'ysinib qoladi. Vositachi tilidagi tarjima jarayonida vujudga kelgan yanglishuvlar ko'p hollarda o'zbek tilidagi tarjima matnida ham o'z aksini topadi. Aksar hollarda, bilvosita tarjimada asliyat ruhini, milliy xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bevosita tarjimaga qaraganda kamayishi kuzatiladi.

3. Har qanday tarjimada asarning o'ziga xos jihatlaridan ma'lum ma'noda o'zgaradi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o'zgarishlarga duch keladi. Vositachi tilga xos ma'lum g'oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy vositalar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjimadan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg'ishlar vujudga kelishi mumkin.

4. Bilvosita tarjimaning qator kamchiliklariga qaramay, hozirgi kunga qadar o'z mavqeyini yo'qotmagan. Undan voz kechish tarjimashunoslik va badiiy adabiyot sohalarida kemptiklar hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

5. Bevosita usulda amalga oshirilgan tarjimalar saviyasini ko'tarish va sharq tillari bo'yicha malakaviy tarjimon mutaxassislar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish lozim.

6. Ishning mavzusidan kelib chiqqan holda frazeologizmlarni tahlil qilish jarayonida Sh.Rahmatullayevning frazeologizmlar klassifikatsiyasiga asoslanib ibora va frazeologik birliklarni tarjimadagi aksi va ularni o'girilishi Q.Musayevning ilmiy qarashlariga tayanildi. Shundan kelib chiqqan holda, "Nirmala" romanining bilvosita va bevosita tarjimalarini qiyosiy tahlilga tortib, mutarjim frazeologik birliklarni asosan ekvivalent, muqobil va tasviriy usullarda

imkon qadar o'g'iriganligi, asliyat matnini kitobxon tomonidan qabul qilinishini inobatga olishi va ma'no bo'yoqdorligini oshirish maqsadida oddiy so'z birikmalarini ham ibora shaklida tarjima qilganligi aniqlandi.

7. Asliyatdagi frazeologizm o'rniga tarjima tilida bir necha mos keladigan frazeologik birlik mavjud bo'lganda, tarjimon nafaqat lisoniy birliklarning mos kelishi, balki mazmunning to'la aks etishiga e'tibor berishi kerak. Buning uchun, tarjimon asliyat bilan yuzma yuz ish olib bormog'i lozim. Bevosita tarjimaning katta imkoniyatlaridan biri bo'lgan bu holatdan tarjimon unumli foydalanmog'i lozim.

8. Tarjimon biron asarni o'g'irishdan avval, ushbu asar muallifining uslubini yaxshi anglab yetgan bo'lishi va yozuvchi uslubini o'ziniki bilan biriktirgan holda ish olib borishi lozim. Tarjimon yozuvchi uslubi bilan yaxshi tanish bo'lmasa u holda yaratgan tarjimalari muallif asarlarining tarjimalari emas, balki mutarjim yaratgan asarga aylanib qolish ehtimoli kuchayadi.

9. Shuningdek, ishning maqsadini yoritishda badiiy-tasviriyy vositalar tahlilga tortildi. Tarjima jarayonida asliyatdagi badiiy-tasviriyy vositalar metafora, metonimiya, epitet va o'xshatish vositalari orqali o'g'irilganligi misollar orqali qiyosiy tahlil qilindi.

10. Premchandning "Nirmala" romanining tarjimasi tahlilidan kelib chiqib, bilvosita tarjimaning quyidagi yutuqlari belgilandi:

- bir tarjimon bir necha xalq vakillarining durdona asarlarini tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- kitobxon eng uzoq mamlakat xalqlari bilan ham adabiyot orqali yaqindan tanishadi;

- bilvosita tarjima nashr etilgan zamon va sharoitda kitobxonlarga manzur bo'lgan hamda vositachi til orqali bo'lsada, hind madaniyatining go'zal qirralarini ma'lum ma'noda saqlab qolishga imkon yaratgan;

- XX asrda badiiy asarlarni hindiy tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjima qila oladigan tarjimonlar yetishmasada, hind adabiyoti bilan rus tili orqali tanishish imkoniyatini ochib bergan;

–asarning tarjimasida badiiy tasviriy vositalar asliyatga juda yaqin shakl-mazmunda o‘g‘irilgan, tarjimada voqealar davomiyligi to‘g‘ri saqlangan va asliyatdagi biron bir satr tarjimada tushirib qoldirilmagan.

11. Bilvosita tarjimaning kamchiliklari:

– har qanday tarjima asari o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlari va birliklarini ma’lum darajada o‘ziga singdiradi, bilvosita tarjimaga esa, asliyatdan emas, balki vositachi til xususiyatlari o‘tadi;

– bilvosita tarjima vositachi tildagi adabiy muhit va zamonga moslashadi;

–bilvosita tarjima yoki taglamadan o‘g‘irgan tarjimon asosan muallif uslubi va g‘oyasiga emas, balki vositachi tarjima muallifi aks ettirgan mazmunga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi;

– vositachi til orqali amalga oshirilgan tarjima mutarjimi asliyatni o‘z xalqi dunyoqarashiga moslashtirgan va erkin o‘zgartirishlar kiritadi, yoki aksincha asarning qaysidir qismini ataylab tushurib qoldiradi. O‘z navbatida, bilvosita tarjima mutarjimi ham o‘zi bilmagan holda asliyat shakl va mazmuniga putur yetkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust, O‘RQ-464-I-son.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust, O‘RQ-464-I-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 29apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2909-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdaqi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

5. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – 123 б.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

IV. Ilmiy adabiyotlar

o‘zbek tilida:

7. АбдуллаевШ.Д. Таржимаасарларидафразеологизмлар семантикаси.(Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2007. – 156 б.
8. Азнаурова Э. Икки тил оша // Таржима санъати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти,1973. – 213-233б.
9. Бобониёзов А.Ю. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1995. – 122 б.
10. Дадабоев Х. Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV. – Тошкент, 2013.
11. Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида): Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2011. – 145 б.
12. Ёрматов А.Т. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси. – Тошкент, 1994.

13. Ёқуббеккова М. Ўзбек халқ ўланларида ўхшатиш. – Тошкент: Фаннашриёти, 2003. – 240 б.
14. Жўраев Қ. Яхши тағлама – деярли асл нусха //Таржима санъати. – Тошкент: Фаннашриёти, 1982. – 60 б.
15. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчинашриёти, 1980. – 406 б.
16. Исаев А. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар (Ўзбек ва қорақалпоқ тиллари): Филол. фан. ном... дисс.– Тошкент, 1976. – 156 б.
17. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. –200 б.
18. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док-ри. дисс. – Тошкент, 1993. – 297 б.
19. Йўлдошев Б. Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Самарқанд: Сўғдион нашриёти, 1998. – 86 б.
20. Мадвалиев А. таҳрири остида. Ўзбек тили изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.
21. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док-ри. дисс. – Тошкент, 1999. – 330 б.
22. Мирзаев М. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. – Тошкент, 1965. – 70 б.
23. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фаннашриёти, 1978. – 167 б.
24. Мусаев Қ. Бадиий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: Ўқитувчинашриёти, 1976. –160 б.
25. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик – Тошкент: Фаннашриёти, 2005. – 352 б.
26. Нурматов Ў. Билвосита таржимада матн танлаш // Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 147-152 б.

27. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 272 b.
28. Очилов Э. Таржимашунослик терминларинингизоҳли луғати. – Тошкент: ТошДШИ, 2014. – 266 б.
29. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969. – 89 б.
30. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Тошкент, 1957. – 78 б.
31. Рафиев А. Иборалар нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистоннашриёти, 1985. – 122 б.
32. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – 59 б.
33. Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1955. – 128 б.
34. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг бирлашуви. – Тошкент: Университетнашриёти, 1992. – 126 б.
35. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилинингизоҳлифразеологиклуғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 380 б.
36. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилинингизоҳлифразеологиклуғати. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 1978. – 407 б.
37. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимиклик): Филол. фан. док-ри. дисс. – Тошкент, 1966. – 362 б.
38. Рустамов А. Алишер Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Фаннашриёти, 1979.
39. Саидов С. Давр тақозоси // Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 203-209 б.
40. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан нашриёти, 1980. – 160 б.

41. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 113 б.
42. Саломов Ғ. Рус тилидан мақол, маталва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961.–162 б.
43. Саломов Ғ. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш // Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 47-86 б.
44. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчинашриёти, 1983. – 232 б.
45. Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. – Тошкент: ToshDShI, 2016. – 191 б.
46. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари // Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 160 б.
47. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан нашриёти, 1966. – 384 б.
48. Сирожиддинов Ш. Одилова Г. Бадиий таржима асослари. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўзнашриёти, 2011. – 166 б.
49. Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 1981. – 224 б.
50. Содиқова М. Қисқача ўзбекча – русча фразеологик луғат. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1989. – 336 б.
51. Содиқова М. Қисқача русча-ўзбекча барқарор иборалар луғати. – Тошкент, 1994. – 248 б.
52. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Oʻquv qoʻllanma. –Тошкент: ToshDShI, 2015. – 191б.
53. Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1998.– 162 б.
54. Ходжаева Т.А. Ҳиндистон халқлари адабиёти (Янги ва энг янги давр). –Тошкент, 2010. –204 б.
55. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2015.

56. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 2013.

57. Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo нашриёти, 2016. – 132 б.

58. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 1970. – 300 б.

59. Шарафиддинов О. Бадиий таржиманинг баъзи принциплари // Таржима санъати.– Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1961. – 144-159 б.

60. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 239б.

61. Қахҳор А. Таржимачилик ташвишлари // Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 7-11 б.

62. Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

63. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Академнашр. – Тошкент, 2013. – 408 б.

64. Қўчқортоев И. Бадиий сўз устаси (А.Қахҳор ҳақида). – Тошкент, 1967. – 32 б.

65. Ғиёсов Н. Билвосита таржима ва миллий тийнат // Таржима муаммолари (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент, 1991. – Б. 82-93.

rustilida:

66. Абдурахимов М. Узбекская языковая афористика (фразеология) как объект системы учебных двуязычных словарей (На материале узбекского и русского языка): Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 2002. – 165 с.

67. Адмони В.Г. Основы теории грамматики. – Москва, 1964. – 456 с.

68. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1961.– 394 с.

69. Веселовский А.А. Историческая поэтика. –Москва, 1966. – 196 с.

70. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология лексикография – Москва, 1977. – 461 с.

71. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: ИМО, 1980. – 340 с.
72. Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – Москва: СП, 1972. – 264 с.
73. Кенесбаев С.К. О некоторых особенностях фразеологических единиц казахском языке // Серия филологии искусствоведения. Вып. 1. – Алма-Ата, 1954. – С. 6-28.
74. Коммисаров В.Н. Общая теория переводе. – Москва, 1999. – 136 с.
75. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. –Москва: ЭТС, 2002. – 402 с.
76. Левый И. Искусство перевода. – Москва:Прогресс, 1968. – 394 с.
77. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990. – 688 с.
78. Лихачев Д.С. Стиль как повидение // Современные проблемы литературоведения и языкознания. – Москва: Наука, 1974. – С. 101-199.
79. Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс... док-ра филол.наук. – Ташкент, 1984.
80. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва, 2001. – 183 с.
81. Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. – Москва, 1961. – 260 с.
82. Невелова С.Л. Вопросы поэтики древнеиндеского эпоса.Эпитет и сравнение. – Москва: Наука, 1979.
83. Некрасова Е. Сравнения общезыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтика. – Москва: Наука, 1979. – С. 187-196.
84. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Москва,1928.– 479 с.

85. Рафиев А. Структурнофункциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 142 с.

86. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: ИМО, 1974. – 237 с.

87. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград: Учпедгиз, 1959. – 525 с.

88. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1983. – 304 с.

89. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Издательство филология три, 2002. – 348 с.

90. Федоров А.В. О художественном переводе. – Москва, 1941. – 260 с.

91. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. – Москва, 1977 – 696 с.

92. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва, 1972. – 477 с.

93. Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск: Наука, 1976. – 321 с.

94. Чуковский К. Высокое искусство. – Москва: СП, 1968. – 384 с.

hindiyl tilida:

95. सुश्रीनजीदानज़रबायेवा।हिंदीऔरउज़बेककेअंगिकमुहावरोंकातुलनात्मकअध्ययन।लघुशोधप्रबंध।आगरा।: केन्द्रीयहिन्दीसंस्थान, 1994. – प.46.

V. Manbalar

o'zbek tilida:

96. Премчанд. Нирмола. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – 206 б.

97. Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. – Тошкент, 2016 йил, январь сони. – 207 б.

98. Премчанд. Нирмала. Жаҳон адабиёти журнали. –Тошкент, 2016 йил, февраль сони. –206 б.

rus tilida:

99. Премчанд. Рассказы, Нирмала. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1958. – 575 с.

100. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-1. – Москва: Советская энциклопедия, 1972. – 908 с.

101. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. Том-2. – Москва: Советская энциклопедия, 1972. – 912 с.

hindi tilida:

102. प्रेमचंद|निर्मला|– नईदिल्ली|भारतीयग्रंथनिकेतन, 2011. – प. 144.

VI. Davriy nashrlar:

103. Исҳоқов Ё. Ташбеҳ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. – № 5. – Б. 81-84.

104. Ёрматова Г. Таржима оламининг ўзгача жилolari // Садо. – Тошкент, 2017.– № 4. – Б. 18.

105. Ғаниева Ш. Фразеологизмларнинг турғун бирикмалар системасидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. №1. – Б. 90-94.

VII. Internet saytlari

106. <http://kitob.uz>(Respublika kutubxonasi rasmiy sayti)

107. <http://www.kutubxona.com>(O‘zbekiston Milliy kutubxonasi)

108. <https://www.google.ru>